



**Sharqdan
esgan
sabolar**

5-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Bu yilgi obuna, haqiqatan ham, sof bo'ladi, deb ishonch bilan ayta olaman. Chunki maktabimiz jamoasi ham, shaxsan o'zim ham ta'lim nashrlariga obuna bo'ldik. Faqat matbuot tarqatuvchilar bilan bog'liq muammo bor. Gazetalar vaqtida yetib kelmaydi. Masalan, "Ma'rifat" gazetasining 59-61-sonlarida maqolam chiqdi. Ammo haligacha qo'limga olmadim. Mana shu masala ham o'z yechimini topsa edi...

6-bet

Kattalar ibрати va rag'batі



11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 24-avgust, shanba № 66 (9235)

Xalq ziyolilari gazetasi



**Maktabgacha ta'lim:
erishilgan natijalar va
ko'zlangan rejalar**

8-9-betlar

Ma'naviyat va ma'rifat – taraqqiyot qanoti



MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH UMUMXALQ HARAKATIGA AYLANISHI ZARUR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim

tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Prezidentimiz yig'ilishda maktab ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida

fikr yuritarkan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtaldi.

2-bet


Oila tanazzulga uchramasin!

Oilada biror voqea ro'y bersa, mahalla bexabar qolmasligi kerak, deymiz. Chunki eng avval yonimizda turadigan ham, dardimizga sherik bo'ladigan ham mahalla.

Ammo ba'zan mahalla idorasidagi gap ertasiga butun qishloqda duv-duv gap bo'lsa-chi? Xonadonga yangi kelin tushirgach, qaynona, eng avvalo, unga uydagi gapni ko'chaga chiqarmang, deb bejiz tayinlamaydi. Lekin har doim ham bu qoidaga amal qilinmasligiga bugun yanada ko'proq amin bo'lyapmiz. Chunki bugun ijtimoiy tarmoqlar odamlarning nafaqat tilidagi, balki dilidagini ham om-maga oshkor qilmoqda.

Internet — oila ma'naviyatini yuksaltirishga, oila muhitini mustahkamlashga nechog'lik hissa qo'shmoqda? Yaqinda ijtimoiy tarmoqlardan birida shunday bir fikrni o'qib qoldim: "Qaynotam kunda ichib kelib janjal qiladi, qaynonam esa bezor bo'lib qizlarinikiga ketib qolyapti. Turmush o'rtog'im kun bo'yi ishda. Menga qanday maslahat berasizlar?" Ayollar guruhida hamma o'zicha fikr bildiryapti. Kimdir ajrashish, desa, kimdir ichki ishlar bo'limiga yozing, deydi.

7-bet



MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH UMUMXALQ HARAKATIGA AYLANISHI ZARUR

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu — maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir.

Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'si, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohada islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi.

Ota-onalar, jamoatchilikning ishtiroki inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'lim tizimi tiklandi. So'nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug' allomalarimiz — Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o'qituvchi qaytdi.

Pedagog xodimlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tacha-

larga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o'qituvchilarga pensiyasi to'liq miqdorda berilmoqda.

"Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz, — dedi Prezidentimiz. — Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag'ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq".

Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig'ilishda tanqid qilindi.

Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi.

Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta'lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchi-

likning ishtiroki zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

"Maktab — bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak", dedi Shavkat Mirziyoyev.

Videoselektor yig'ilishida xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, muammolarni kompleks hal etish masalalari chuqur tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar muhokama etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi.

Masalan, 2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egalashi maqsad qilib qo'yilgan.

Davlatimiz rahbari o'qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

"Maktab o'qituvchisini moddiy rag'batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz", dedi Prezident.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, Moliya va Xalq ta'limi vazirliklariga 2020-yilda xalq ta'limi xodimlari oylik ish haqini oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Uzoq qishloqlardagi maktablarga o'qituvchilarni jalb etishni yanada rag'batlantirish uchun ularga uy-joylar, avtotransport uchun kreditlar berish ham ko'zda tutilgan.

Bu ishlar davlatimiz tomonidan izchil davom ettiriladi. Lekin bu — masalaning bir tomoni. Ikkinchi

tomondan, o'qituvchi va murabbiylarning o'zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirishi kerakligiga urg'u berildi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, hududlarda 6 ta pedagogika institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika ta'lim markazi, Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, viloyatlarda ham shunday institutlar bor. Lekin o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'qituvchilarning bilim va malakasini yuksaltirishda, afsuski, ularning o'rni sezilmayapti.

Yig'ilishda pedagogika yo'nalishtidagi oliy o'quv yurtlari faoliyatini tanqidiy o'rganib, takomillashtirish, ularni eng nufuzli ta'lim muassasalariga aylantirish, pedagogiklikka moyilligi bo'lgan yoshlarni maqsadli tarbiyalab borish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Prezident maktablari va ijod maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning samaradorligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida alohida tuzilma tashkil etilishi ma'lum qilindi.

Maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, "Milliy g'oya", "Odob-noma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligi ta'kidlandi.

Oiladagi ta'lim-tarbiya muhiti, ota-onalarning mas'uliyati va o'qituvchilar bilan hamkorligi masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Maktab hayoti, fidoyi o'qituvchilar haqida badiiy va hujjatli filmlar, sahna asarlari va videoroliklar yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

"Moddiy va ma'naviy hayotni uyg'un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo'g'in bo'lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur", deb ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda ishtirok etgan rahbar va mutasaddilar, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali va fidoyi muallimlar, ziyolilar, mahalla faollari muhokama qilingan masalalar yuzasidan o'z fikr-takliflarini bildirdilar.

O'ZA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING YIGIRMA BIRINCHI YALPI MAJLISI TO'G'RSIDA AXBOROT

2019-yil 23-avgust kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirma birinchi yalpi majlisi ish boshladi.

Yalpi majlisda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar rahbarlari, mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Majlisi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis kun tartibi tasdiqlanganidan so'ng senatorlar ko'rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishga kirishdi.

Senatorlar ishini "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rib chiqishdan boshladi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni kamситishning barcha shakllariga barham berish, gender tenglikni ta'minlash ayollarga nisbatan shunchaki adolatli munosabat sifatida emas, balki mamlakatning iqtisodiy o'sishini davom ettirish, barqarorligi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. Aynan shu sababli bu yo'nalishdagi ishlar, eng avvalo, jinslar tengligi huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan ushbu Qonun ham aynan shunga qaratilgan. Mamlakat tarixida ilk bor xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlash bilan bog'liq munosabatlar to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yagona Qonunda tartibga solinmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanmoqda. Bundan tashqari, "gender", "gender-huquqiy ekspertiza", "jins bo'yicha bevosita kamsitish", "jins bo'yicha bilvosita kamsitish" kabi ushbu sohaning asosiy tushunchalariga aniq izohlar berilmoqda. Avval ushbu tushunchalarning ta'rifi bo'lmaganligi bois huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklar kelib chiqayotgan edi.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashning qonuniylik, demokratiya, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmagligi, ochlik va shaffoflik, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ustuvor ahamiyat berish kabi asosiy prinsiplari belgilanmoqda.

Hujjatda davlat jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohaslarida, shu-

ningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohaslarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlashi belgilab qo'yilmoqda.

Davlat statistika organlari gender ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohaslarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ishi, unga ishlov berishi, to'plashi, saqlashi, tahlil qilishi va e'lon qilishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, davlat organlarining (Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli organ, boshqa davlat organlarining) va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash sohasidagi vazifalari hamda vakolatlari aniq belgilab qo'yilmoqda.

Jins bo'yicha kamsitish hollari ustidan shikoyat qilishning, buning natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashning tartibi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Senatorlar ushbu Qonunning qabul qilinishi gender bag'rikenglik va tenglikni qonunchilik darajasida ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidladilar. Bu mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida juda dolzarbdir, chunki bu, eng avvalo, inson jamiyatda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini muvaffaqiyatli ro'yogba chiqarish imkonini beradi. Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng senatorlar "Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rib chiqdilar.

Majlisda ta'kidlanganidek, joriy yilning o'zida huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan O'zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan bir qancha zo'ravonlik holatlari qayd etildi. Ayrim ayollar sodir etilgan jinoyatlar natijasida jabrlangan. Yangi Qonun bunday muammolarning oldini olishga, xotin-qizlarni maishiy hayotda, ishda, ta'lim muassasalarida va boshqa joylarda jabr-zulmdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Qonunda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, shuningdek, vakolatli organlar va tashkilotlar — Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati, ichki ishlar, bandlik va mehnat munosabatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash idoralari, Xotin-qizlar qo'mitasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish



organlari, xotin-qizlarni himoya qilish sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifalari belgilanmoqda.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi yordam ko'rsatish, maslahat berish mexanizmi hamda chora-tadbirlari, xotin-qizlarga nisbatan tazyiqlar va zo'ravonlik holatlarining oldini olish to'g'risida axborot olishni ta'minlash maqsadida respublikaning butun hududida tun-u kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog'i (ishonch telefoni) faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi belgilab qo'yilmoqda.

Profilaktika suhbatlari muayyan shaxsni jamiyatda umumqabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirish, g'ayri ijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy hamda huquqiy oqibatlarini tushuntirish, shuningdek, qonunda belgilangan javobgarlik to'g'risida ogohlantirish maqsadida tashkil etiladi. Profilaktika suhbatlari tazyiq va zo'ravonlik hollarini aniqlagan vakolatli organ vakili tomonidan tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxslar bilan o'tkaziladi.

Shu bilan birga, Qonunda himoya orderini berish va uning muddatini uzaytirish, tazyiq qurbonlariga nisbatan himoya orderi, uning mazmuni, shuningdek, himoya orderida nazarda tutiladigan cheklovlar belgilanmoqda.

Qonunda bunday hollarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, bu kabi qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan. Bundan tashqari, jabrlangan shaxslarni himoya qilishni nazarda tutuvchi protsessual kafolatlarni shakllantirishga, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan har qanday shakldagi zo'ravonlikka murosasiz munosabatni qaror toptirishga qaratilgan chora-tadbirlar aks etgan. Ushbu Qonunning qabul qilinishi jamiyatda xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni yanada yaxshilashga, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishni mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

So'ngra "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" Davlat dasturi-

ning 2019-yil ikkinchi choragidagi ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoboti muhokama mavzusi bo'ldi.

Senat tomonidan o'tkazilgan tahlil va o'rganishlar natijalariga ko'ra joriy yilning birinchi yarim yilligida dasturning 139 ta bandi ijrosini ta'minlash belgilangan. Shundan 101 ta bandning ijrosi ta'minlandi va 22 ta band muddatidan oldin bajarildi. Hozirgi kunda ijrosi ta'minlangan bandlar soni jami 123 tani tashkil etmoqda.

Amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida hisobot davrida yalpi ichki mahsulot o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 foizga o'sdi. Budget daromadlari qariyb 51 trillion so'mni yoki prognozga nisbatan 109 foizni tashkil etdi. Mahalliy budgetlar ixtiyorida 2,6 trillion so'mdan ortiq yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobar ko'p mablag' qoldi.

Mamlakatda investitsiyaviy muhitni yaxshilash va to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida joriy yilning birinchi yarmida asosiy kapitalda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi 2,5 barobarga ortdi va 1,7 milliard dollarga yetdi.

Joylarda tadbirkorlar va investorlarning muammolarini hal qilish maqsadida tashkil etilgan Bosh vazir qabulxonalarini investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilashga qaratilgan samarali institut sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada mustahkamlash va mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash maqsadida mas'ul vazirlik va idoralar biriktirildi.

Mamlakat iqtisodiyotida o'tgan davr mobaynida investitsiyaviy muhitni takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli amaliy ishlariga qaramay hududlarda investitsiyaviy faoliyatni yaxshilash borasida jiddiy kamchilik va muammolar mavjud.

(Davomi 4-betda.)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING YIGIRMA BIRINCHI YALPI MAJLISI TO'G'RSIDA AXBOROT

(Davomi. Boshi 3-betda.)

Jumladan, xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlar chog'ida qonun hujjatlarining barqaror emasligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tez-tez o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi, bir-biriga zid bo'layotgan normalar mavjudligi xorijiy sarmoyadorlar va ichki investorlarga salbiy ta'sir qilayotganligi alohida ta'kidlandi.

Mazkur holatlar qonun ijodkorligida "aqli tartibga solish" zamonaviy modeli elementlarining keng qo'llanilmasligi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ta'sirini majburiy baholash tizimi joriy etilmaganligi natijasida kelib chiqmoqda.

Shuningdek, Prezidentimizning mamlakatimizda investitsiyaviy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirish to'g'risidagi topshiriqlari to'liq bajarilmasdan qolmoqda. Xususan, xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash bo'yicha "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va kiritish topshirig'i hanzugacha bajarilmagan.

Bundan tashqari, dasturning erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish to'g'risidagi bandi ham bajarilmasdan kelmoqda. Ushbu badda belgilangan "Maxsus erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi parlamentga hozirga qadar kiritilmagan.

Investitsiyaviy faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar uchun kreditlar olish jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Tijorat banklarida resurslarning yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishda byurokratik to'siqlar mavjudligi, o'z navbatida, tadbirkorlarning eksport majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, joriy yilning birinchi yarim yilligida dasturda ko'zda tutilgan investitsiyaviy loyihalar soni 9 088 ta bo'lib, ularning umumiy qiymati 60,3 trillion so'mni tashkil etadi, yaratilishi ko'zda tutilgan ish o'rinlari esa 172 488 ta. Bi-

roq birinchi yarim yillikda jami 3 332 ta loyiha (37 foiz) bo'yicha umumiy qiymati 13,6 trillion so'mlik (23 foiz) loyihalar amalga oshirilib, bor-yo'g'i 38 252 ta ish o'rni (22 foiz) yaratilgan.

Hududlarda investitsiya loyihalarini birinchi yarim yillikda amalga oshirish darajasi 44 foizni tashkil etdi. Bunda Toshkent shahri (27 foiz), Toshkent viloyati (31 foiz) va Qashqadaryo viloyati (37 foiz) eng ortda qolayotgan hududlar hisoblanadi.

Vazirlik va idoralar tomonidan respublikaning xalqaro reyting va indeksdagi o'rni yaxshilash bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarni qoniqli deb bo'lmaydi.

Vazirlar Mahkamasiga dasturda belgilangan muddatlarda bajarilmagan bandlarning so'zsiz ijrosini ta'minlash choralari ko'rish, shuningdek, viloyatlar va tumanlarda o'tkazilgan o'rganishlar davomida Oliy Majlis Senati tomonidan aniqlangan, investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etildi. Muhokama yakunlari bo'yicha Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Shundan keyin senatorlar "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rib chiqdilar. So'zga chiqqanlar mamlakatning amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati, shuningdek, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash yuzasidan amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar natijasida energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga oshib borayotganligini qayd etdilar. Bu iqtisodiyot va ijtimoiy sohani samarali va ishonchli energiya manbalari bilan ta'minlash zaruratini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda respublika tabiiy energiya resursi bo'lgan tabiiy gazga qaram bo'lib qolgan. Elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmida bu manbadan foydalanish 85 foizni tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Hukumati mamlakatning

barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun energetika tarmog'ini rivojlantirishning turli variantlarini ko'rib chiqdi. Bunda mamlakat yadro energetikasi tarmog'ini shakllantirish vazifasi asosiy yo'nalish sifatida belgilab olindi.

Bunday qaror qabul qilishda ko'plab omil va holatlar hisobga olindi. Energetika xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitga uglerod chiqarishni kamaytirish, atom elektr stansiyalari xavfsizligi ko'rsatkichlariga bo'lgan ishonchni oshirish zarurati, iqtisodiyot nuqtayi nazaridan yadro energetikasi raqobatbardoshligi ana shunday omillar sirasiga kiradi.

Natijada O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan 2018-yil yanvarda mamlakatimizda AES barpo etish to'g'risida qaror qabul qilindi. O'sha yilning sentabrida Moskva shahrida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "3+" avlodiga mansub, ikkita energiya blokidan iborat bo'lgan, belgilangan quvvati 2 400 megavattni tashkil etadigan atom elektr stansiyasini barpo etish to'g'risida bitim tuzildi. Bu Xalqaro atom energiyasi agentligining (MAGATE) barcha xavfsizlik talablariga javob beradi. Mazkur obyektning Jizzax viloyati Forish tumani barpo etish rejalashtirilmoqda. Bu hudud geografik joylashuvi va boshqa zarur omillar nuqtayi nazaridan qulay hisoblanadi.

Loyihani amalga oshirish maqsadida mamlakatda zarur salohiyatni shakllantirish bo'yicha izchil ish olib borildi. Eng avvalo, tegishli normativ-huquqiy baza shakllanmoqda, ushbu Qonun uning asosi bo'ladi.

Qonuniylik, xavfsizlik, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, atrof-muhitni himoya qilish ustuvorligi, atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar faoliyati mustaqilligi, ochiqlik va oshkoralik, xalqaro majburiyatlarini bajarish ixtiyoriyligi kabi atom energiyasidan foydalanishning asosiy tushunchalari Qonunda mustahkamlanmoqda, prinsiplari belgilanib, atom energiyasidan foydalanish obyektlari — yadroviy qurilmalar, saqlash punktlari, yadroviy materiallar, yadroviy yoqilg'i, yadroviy reaktorlarning issiqlik ajratuvchi to'plamlari, ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i, radioaktiv chiqindilar nazarda tutilmoqda.

Milliy yadroviy infratuzilmani rivojlantirish, yadroviy qurilmalar va saqlash punktlarini barpo etish, atom energiyasidan foydalanishda atrof-muhit va aholi himoya qilinishini ta'minlash, xavfsiz yadro yoqilg'isi davrini tashkil etish, atom energetikasi uzoq muddatli rivojlantirishni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanmoqda. Senatorlar fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish,

shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvorligi, xavfsizlikning ta'minlanishi, axborotning ochiqligi, yadroviy qurol va boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar ishlab chiqarishning taqiqlanishi atom energiyasidan foydalanishning asosiy prinsiplari ekanligini ta'kidladilar.

So'zga chiqqanlar Qonun atom energiyasini rivojlantirish va undan foydalanish sohasidagi yagona davlat siyosatini va strategik yo'nalishni ishlab chiqish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar. Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatorlar ishni "Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rib chiqish bilan davom ettirdilar.

Muhokama chog'ida barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash, milliy genofondni mustahkamlash, onalar va bolalarni himoya qilish mamlakatimiz davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ekanligi qayd etildi. Bunda tegishli qonun hujjatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'rib chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat ham aynan shunga yo'naltirilgan.

Qonunning maqsadi ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlashdan iborat.

Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqildi.

Qonunni dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun manfaatdor vazirliklar va idoralar, ilmiy doiralar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat ishchi guruh tuzildi, ularning taklif va tavsiyalari e'tiborga olindi. Qonun har tomonlama o'rganib chiqilib, uni tamomila qayta ko'rib chiqish zarur, degan xulosaga kelindi. Xususan, so'zga chiqqanlar ta'kidlab o'tganlaridek, mazkur Qonundagi ayrim normalar uning nomi va maqsadlariga mos kelmaydi, go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya holati, sifati va xavfsizligi talablariga rioya qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish mexanizmlari o'z aksini topmagan, qolaversa, boshqa qonunlardagi normalar mazkur Qonunda takrorlangan.

Shundan kelib chiqqan holda Oliy Majlis Senati mazkur Qonunni rad etish to'g'risida qaror qabul qildi.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yigirma birinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati
Axborot xizmati



Sharqdan esgan sabolar

Hazrat Navoiyda shunday bayt bor:
Yo'l yomon-u yaxshisidin yema g'am,
Bismilloh degil-u, qo'yg'il qadam...

...Qadim Sharqning ohanglari falakni-da o'ziga tortgan davrlarda hali bugungi xaritaga tushgan manzillarning ko'pi yo'q edi.

Ammo o'sha pallalarda ham Sharq oftobi bizga manzirat etib turgan, daryolari ellarni to'yintirib, serhosil tuproqlarni sutga to'yan go'dak kabi erkalab, opichlab turgan pallada bulbulning nolasini, qamishlarning ma'yus shivirlashini, kechirimli, beadoq saholarning shamollarini kuyga sola olgan, o'zi ham, o'zgalar ham zavq tuygan, cholg'u asboblari ham tabiatning bir bo'lagiday bo'lgan hofizlar, dono aytguvchilar mavjud edi.

Bugun Mustaqillik bayrami arafasida ko'hna Samarqand diyorida, ulug' jahongir Temurbek suygan qadim Afrosiyobdan ohanglar tovushi taralayotir. Kecha va bugunni uyg'un etib, baralla yangrayotgan bu sadolarga hech bir jon befarq qaray olmaydi. Jumladan, har bir o'zbekistonlik shunday kayfiyatda yuribdi.

Alisher Navoiy bobomizning yuqorida keltirilgan bayti bejiz so'z avvalidan o'rin olmadiki, "Sharq taronalari" deya atalgan xalqaro anjumanni istiqbol qanday bo'lishidan cho'chimay boshlagan O'zbekiston hukumati, dono rahbarlari bugun uning hosilin teryapti, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Dunyo mamlakatlari nigohidagi zamin

Yurtimiz mustaqilligining 28 yillik shodiyonalari arafasida Samarqand "Sharq taronalari" XII Xalqaro musiqa festivali hamda "Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi" mavzusidagi xalqaro anjumanga mezbonlik qiladi.

Ko'hna va jozibali Samarqand shahri bugun dunyoning turli nuqtalaridan kelayotgan mehmonlarga bag'rini ochmoqda. 25-26-avgust kunlari o'tkaziladigan "Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi" mavzusidagi xalqaro anjuman hamda "O'zbekiston — buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat" meros haftaligida ishtirok etish uchun **52 ta mamlakatdan 351 nafar martabali mehmonlar, ma'ruzachi, ishtirokchi va OAV vakillarining** tashrifi kutilmoqda.

26-avgust kuni 142 nafar diplomatik korpus vakillari tashrifi belgilangan. Shu bilan birga, "World Influencers Congress" I xalqaro hukumat kongresi ishtirokchilari **103 nafarni** tashkil qilmoqda. Ushbu tadbirlarga jami 937 nafar mehmonning tashrif buyurishi kutilmoqda. UNESCO shafeligida o'tadigan xalqaro konferensiyada dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan 200 dan ziyod olim ishtirok etadi. "Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi" mavzusida o'tkaziladigan xalqaro konferensiyaga 300 dan ortiq sharqshunos olim, UNESCO ekspertlari, xalqaro OAV vakillari taklif etilgan. Shuningdek, Samarqandda "Asrlar qa'ridan taralgan nur" nomli islomshunos olimlar ishtirokida xalqaro konferensiya ham bo'lib o'tadi. Tadbir doirasida "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" turkumidagi kitob-albomlarning Xorazm va Buxoro viloyatlari obidalariga bag'ishlangan navbatdagi jildlari (14- va 15-jildlar) taqdimoti hamda BBC o'zbek

xizmati va O'ZEAOVMA hamkorligida suratga olingan "Katta Langar Qur'oni: sirlar va haqiqatlar" kitobining taqdimoti o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qurilgan Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markaziga tashrif ham ko'zda tutilgan.

Olamga taralajak navolar

Registon maydonida "Sharq taronalari" festivaliga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda, shahar markaziy ko'chalarida rang-barang bayroq va illyuminatsiyalar o'rnatilmoqda, yumshoq o'rindiqlar xazirasi tashkil qilingan.

Festival matbuot markazi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, jarayonlarni yoritish uchun keladigan xalqaro OAVlari orasida "Russia 24" telekanali muxbiri Boris Maksudov, Malayziyaning BERNAMA milliy axborot agentligi jurnalisti Sakini Binti Mohd Said, "The Washington Diplomat" gazetasi muharriri isroillik Luxner Larry, Avstriyada nashr etiladigan "Society" jurnali asoschisi va bosh muharriri Tauchhammer Gertrud hamda Xitoyning nufuzli "Diplomat magazine" jurnali bosh muharriri Ren Dongping ham bor.

Shuningdek, AQSh, BAA, Norvegiya, Italiya, Ozarboyjon, Polsha, Shveysariya, Yaponiya ommaviy axborot vositalari dovrug' olamga ketgan festival jara-yonini yoritish uchun o'lkamizga kelishi quvonarlidir.

"Sharq taronalari" XII Xalqaro musiqa festivali munosabati bilan O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida "Olamga taralgan, Sharq taronasi!" nomli ko'rgazma tashkil etilmoqda. Mazkur ko'rgazmada muzey-qo'riqxonalar jamlamlarida saqlanayotgan milliy cholg'u asboblari, arxeologik ashyolar (3300 yillik

nay), festival tarixiga oid hujjatlar, festivalda turli yillarda ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritgan O'zbekiston xalq artistlari Munojot Yo'ldashyeva, O'lmas Saidjonov, Nasiba Sattorova, Nodira Pirmatova, Zamira Suyunova hamda Dilnura Qodirjonovlarning sahna liboslari, fotolavhalar hamda festivalda ishtirok etgan turli davlat musiqachilari va musiqiy guruhlari tomonidan taqdim etilgan milliy cholg'u asboblari namoyish etiladi.

Ishtirokchilar ikki yo'nalishda saralanadi

"Sharq taronalari" XII xalqaro musiqa festivalini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga bir qator yangilik va o'zgarishlar kiritilib, yangidan qabul qilindi. Nizomga ko'ra, "Eng yaxshi ijro uchun" xalqaro ko'rik-tanlov, ilmiy-nazariy konferensiyalar, Samarqand shahri va uning atrofidagi tuman, shaharlarda ishtirokchilarning konsert dasturlari, viloyat bo'yab ijodiy uchrashuvlar va boshqa tadbirlar o'tkaziladi. Bu yil tanlov ishtirokchilarining chiqishlari ikki yo'nalish — professional tarzidagi xalq musiqa va qo'shiqlari hamda an'anaviy yo'lda ijod qilingan zamonaviy musiqa yoki qo'shiq yo'nalishlarida baholanadi.

Musiqiy jamoalar ishtirokida rejaga muvofiq, Samarqand shahridagi 5 ta, shuningdek, Oqdaryo, Samarqand, Pastdarg'om, Toyloq, Urgut va Jomboy tumanlaridagi madaniyat muassasalarida uchrashuvlar va madaniy tadbirlar o'tkaziladi.

Samarqandda o'tkazilajak qo'shaloq anjumanlar nafaqat san'atsevar, mehmondo'st xalqimizning, balki har bir tashrif buyurgan mehmon qalbidagi yorqin va o'chmas taassurotlarga boy bo'ladi. O'zbekiston degan nomni eshitganida bir nur misoli bu zaminda kechgan zavqli, ertaknamo kunlarini eslab, shu aziz tuproqqa yana talpinaveradi, degan umidimiz bor.

Nazokat XOLMETOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

"Eng ulug', eng aziz" ko'rik-tanlovi g'oliblari taqdirlandi

Poytaxtimizda Vatanimiz mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab "Eng ulug', eng aziz" an'anaviy ko'rik-tanlovi g'olib va sovrindorlarini taqdirlashga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori o'rinbosari A.O'rozov va boshqalar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tub ijobiy o'zgarishlar odamlarning tashvishini yengil qilish, xalqimizning hayot farovonligini oshirish, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi obro'sini yuksaltirishdek maqsadlarga yo'naltirilganini ta'kidladi.

Prezidentimizning 2019-yil 8-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga asosan "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar keng ko'lamda hayotga joriy etilmoqda. Bu yo'nalishda tashkil etilayotgan tadbirlar istiqbolning qadr-qimmatini teran anglash, uning ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, har bir fuqaroning yurt taqdiri, uning kelajagi uchun mas'uliyatni teran his etishga chorlamolqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiya

yasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, "O'zbekki-no" milliy agentligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi, Milliy teleradiokompaniya, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu an'anaviy ko'rik-tanlov iste'dod sohiblarini yanada ko'proq izlanish, o'z mahoratini to'laqonli namoyon etishga imkon bergani bilan ahamiyatlidir.

Tanlovga "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan va 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturi, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Har bir oila — tadbirkor", "Yoshlar — kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi muhim dastur va rejalarda doirasida olib borilayotgan tub islohotlarni keng yorituvchi ijodiy asarlar qabul qilindi. Tanlov yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari, bosma OAV xodimlarining jurnalistik ishlari, ommaviy axborot vositasi sifatida ro'y-xatga olingan veb-saytlardagi internet-jurnalistika materiallari, televideniye va radio ijodkorlarining materiallari, tasviriy san'at, foto asarlari va dizayn ishlari, kino san'ati asarlari kabi nominatsiyalar bo'yicha tashkil etildi.

Unga mamlakatimiz ijodkorlarining ko'plab adabiy-badiiy asarlari, gazeta-jurnallar va internet nashrlarida e'lon qilingan maqolalar, radio va telekanallarda e'fira uzatilgan materiallar, namoyish etilgan tasviriy san'at va kino san'ati asarlari kelib tushdi.

Ijodiy ishlarni baholashda professional mahorat, mukammal badiiy saviya, bugungi kunda kechayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng va atroflicha ochib berish, teran talilliy mushohada singari jihatlariga asosiy e'tibor qaratildi.

Eng yaxshi deb topilgan ijodiy ish mualliflari "Eng ulug', eng aziz" an'anaviy ko'rik-tanloving g'olib va sovrindorlari deb topildi.

— Ijod, ijodkorlik insonga ato etilgan noyob ne'mat, — dedi tanlov g'oliblaridan biri, taniqli shoir Eshqobil Shukurov. — Uning qadrlanishi iste'dod nufuzini ulug'laydi. Mehnat, ijodning yuksak qadrlanishi ijodkorning ulkan baxtidir. U faxr tuyg'ularini bag'ishlaydi. Biz eng ulug', eng aziz bayram arafasida turibmiz. Ushbu ayym qadrimizni, qalbimizni ko'taradigan, yuksaklarga undaydigan bayram. Tanlov uchun taqdim etgan "Bobo so'z izidan" kitobim ona tilimizni asrab-avaylash, so'zlarning ma'no-mazmunini, tub ildizini ochib berishga xizmat qiladi.

Gazetamiz orqali xalq bilan doimiy muloqot o'rnatishga, odamlarning tashvishlarini chuqur o'rganishga, ularga yechim topishga doimiy intilmoqdamiz, — dedi "Jamiyat" gazetasi bosh muharriri Maqsud Jonixonov. — Tahririyatimiz uchun bildirilgan shunday yuksak ishonchni oqlashga harakat qilamiz.

Tantanalı tadbirda Vatanimiz mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan "Eng ulug', eng aziz" an'anaviy ko'rik-tanlovi g'oliblari taqdirlandi.

Nazokat USMONOVA,
O'Z A muxbiri

Ma'naviyat va ma'rifat – taraqqiyot qanoti

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi loyihalar namoyishi

Xorazm viloyatida joriy yilning 21—23-avgust kunlari ikki muhim tadbir — “Ma'naviyat festivali” hamda “Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” ko'rik-tanlovining mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi.



Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati hamda hamkor tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan ushbu tadbirlarda mamlakatimizning barcha hududlaridan yozuvchi-shoirlar, ijodkorlar, keng jamoatchilik vakillari va yoshlar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan

ushbu tadbirlar davomida hududdagi ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlar hamda ijod maskanlarida uchrashuvlar tashkil etildi. Festival doirasida joylarda ijodkor, yozuvchi va ziyolilar, el ardorg'idagi insonlar bilan suhbatlar o'tkazildi. Turli tanlov va viktorinalar qiziqarli bahs-munozaralarga boy bo'ldi.

— Festival doirasida dastlab Ichan qal'adagi Matmurod Devonbegi madrasasida “Ma'rifat-tur” loyihasi taqdimoti bo'lib o'tdi, — deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i Munira Qahhorova. — “Ma'naviyat festivali” doirasida o'tkaziladigan tadbirlardan yana biri “Ma'rifat turizmi” loyihasi bo'ldi. Bunda tarixchi olimlar va loyiha tashabbuskorlari o'z ma'ruzalarida yoshlarga tarixiy shaharlar va madaniy merosimni keng targ'ib qilishning ahamiyatini tushuntirishga harakat qilishdi.

Tadbir ishtirokchilari ham loyihani yana-da boyitish bo'yicha o'z taklif-tavsiyalari bilan o'rtoqlashdi.

Urganch shahrida “Jamiyat taraqqiyotining asosi ma'rifatdir!” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya ham bo'lib o'tdi. Unda aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning uzviy davomi sifatida tashkil etilgan ushbu festivalning ahamiyatiga to'xtalib o'tildi. Ijodkorlar va mutaxassislarning mavzuga doir ma'ruzalari tinglandi.

Shuningdek, festival doirasida viloyatdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari o'rtasida “Alla” aytilish bo'yicha tanlov, “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati a'zolari ishtirokida “Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!” shiori ostida targ'ibot tadbiri, kitoblar yarmarkasi tashkil etildi.

Xorazm viloyati musiqali drama teatrida “Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” ko'rik-tanlovi, mamlakat bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Ahmadjon SHOKIROV,
O'ZA muxbiri

O'qituvchilar bilan eko-trening

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyat kengashi binosida Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan “O'zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish” dasturining BMT Taraqqiyot Dasturi doirasida “Atrof-muhitni muhofaza qilish omillari” mavzusida seminar-trening bo'lib o'tmoqda.

Tadbir soha mutaxassislari, Termiz shahridagi 17 ta umumta'lim maktablarining fizika, kimyo, biologiya fani o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etmoqda.

Seminar interfaol usulda, sho'balarga bo'lingan holda olib borilmoqda. Treningning birinchi bosqichi iqlim o'zgarishi, suv tanqisligiga bag'ishlangan bo'lib, unda tabiatda suv aylanishi mavzusida ma'ruza tinglandi va ishtirokchilar “Issiqxona effekti” o'yinida ishtirok etishdi.

Ikkinchi bosqich “Suvni top” mavzusida o'tkazildi. Unda interfaol usulda “Virtual suv” ma'ruzasi tinglandi, shuningdek, “Suv qayerga yashirangan? Yerosti suvlari, atmosferadagi suv. Texnologiyalar suvni qanday usul bilan topishadi?” mavzularida munozaralar bo'lib o'tdi.

Uchinchi bosqich “Suvni asra” nomi ostida o'tkazildi. Unda “Suv qayerga ketadi?” o'yini, “Qishloq xo'jaligida suvni

tejash usullari”, “Qo'limizda bor vositalar yordamida tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'yamiz”, “Ro'zg'orda suvni tejash usullari”, “Metall xarita chizamiz”, “Gidrogel va boshqa xil suvni tejash texnologiyalari haqida ma'lumot beramiz” mavzulari muhokama qilindi.

To'rtinchi bosqich “Suvning sifati” deb nomlandi. Unda qayerda, qanday suv bor? Sug'orish va ichish uchun mo'ljallangan suv, sanoat va maishiy suvlarni tozalash usullari, suvni tozalash uskunalarini haqida so'z yuritildi. Beshinchi bosqich “Nima qilish kerak?” mavzusida bo'lib o'tdi. Unda suvni avlodlarga qoldirish uchun nima qilish kerakligi, muammoga har bir kishi daxldor ekanini tushuntirish qanchalik muhimligi izohlab berildi. Shundan keyin, asfaltga rasm chizish tanlovi o'tkazildi. Unda ishtirokchilar “Har doim suv bo'lishi uchun men nima qila olaman?” mavzusi bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etdilar.

— Seminar-trening menga juda yoqdi, — deydi Termiz shahridagi 12-maktabning kimyo fani o'qituvchisi Feruza Hamroyeva. — Seminar ekologiya mavzusida bo'lgani bois fanimga bevosita bog'liq. 24 yildan beri kimyo fanidan dars beraman. Darslarim o'quvchilarga og'irlik qilmasligi uchun interfaol usullardan foydalanaman. Bugungi treningdan ko'p narsa o'rgandim. Olgan bilimlarimni darslarimda qo'llayman.

Charos YOQUBOVA

Ro'yobga chiqqan orzular

Shovot tumanining chekka hududida joylashgan Arbek mahallasida bolalar sport saroyi qurib bitkazildi va foydalanishga topshirildi.

Majmuaning ochilish marosimida Xorazm viloyati hokimi F.Ermonov, tuman hokimi N.Otaxonov, xalq ta'limi bo'limi mudiri H.Rajabov hamda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutasaddilar qatnashdi.

Tadbirda Osiyo va jahon maydonida Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib kelayotgan sport ustalari tashrif buyurgani o'g'il-qizlar uchun munosib sovg'a bo'ldi. So'zga chiqqan otionalar, nuroniy faxriylar, pedagoglar

anchadan buyon orzu qilgan inshootlari bunyod etilganidan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun barcha shart-sharoit yaratilganidan mamnun bo'lishdi.

Parvoz JUMABOYEVA,
Shovot tumanidagi
15-maktab o'qituvchisi

O'qituvchi

nimani

o'g'laydi?



✓ “Ma'rifat”ning salkam 40 yillik o'quvchisiman. Yoshligimda gazetani 7-8 yil dadamning qo'lida ko'rib o'qigan bo'lsam, 32 yildirki, haqiqiy o'quvchisiman deya olaman. Muallim bo'lib shakllanishim, o'quvchilarimni ijodga qiziqtirishim, jurnalist bo'lish to'g'risidagi bir umrlik orzum armon bo'lmasligida otaxon nashrimiz va unda faoliyat yuritadigan xodimlarning hissasi katta.

Aziza BOYMURODOVA

✓ Bu yilgi obuna yuqori ko'rsatkichda bo'lishiga ishonaman, ayniqsa, “Ma'rifat” gazetasiga...

Xalqimiz kitob, gazeta va jurnallarni o'qib borishning naqadar afzalligini tushunganday, nazarimda... Kitob yoki gazeta o'qiyotganlarni, maqola mazmunini tahlil qilayotganlarni ko'rib, ko'nglim yorishib ketadi. Demak, kitobxonlik madaniyati yuksalyapti.

Ozoda JANGIROVA

✓ Yakka obunachi bo'lish yaxshi ekan. Mana bir yildan buyon “Ma'rifat” gazetasining har bir sonini intizorlik bilan kutaman. Yil davomida ushbu gazetadan faoliyatim davomida foydalandim va yutuqlarga erishdim. O'quvchilarim esa “Tong yulduzi”ni sevib mutolaa qilishadi. Bir yillik faoliyatim davomida o'quvchilarning bilimlar bellashuvida g'olib bo'lishida, to'garakning gullab-yashnashida gazetalarining ham o'rni bor. Qolaversa, menga 2019-2020-o'quv yili uchun 25 foizlik ustama tayinlashdi. 17-avgust sonida o'quvchilarimning ijodiy ishi ham bosilibdi. Bundan juda quvondik.

Madina BAXSHILLOYEVA

✓ Yaqinda maktabimizda ikki nafar o'qituvchi 4 oylik bo'lsada, “Ma'rifat” gazetasiga obuna bo'lishdi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan turli yangiliklarga ishonch yo'q. Biz faqat gazetada chiqqan xabar va maqolalarni ishonchli deb bilamiz. Endi ular gazetani sentabr oyidan boshlab olishadi. Oldingi obuna bo'lgan o'qituvchilar ish stolidagi gazetaning taxlamlari turadi. Xususan, mening ham...

Ulug'oy XUDOYNAZAROVA

✓ Bu yilgi obuna haqiqatan ham sof bo'ladi, deb ishonch bilan ayt olaman. Chunki maktabimiz jamoasi ham, shaxsan o'zim ham ta'lim nashrlariga obuna bo'ldik. Faqat matbuot tarqatuvchilar bilan bog'liq muammo bor. Gazetalar vaqtida yetib kelmaydi. Masalan, “Ma'rifat” gazetasining 59-, 61-sonlarida maqolam chiqdi, Ammo haligacha qo'limga olmadi. Mana shu masala ham o'z yechimini topsa edi...

Yulduz IBRAGIMOVA

Ma'naviyat va ma'rifat — taraqqiyot qanoti

Oila tanazzulga uchramasin!



(Davomi. Boshi 1-betda.)

Yana boshqasi ota-onangizga ayting, desa, yana birov shifoxonada davolating, deydi. Foydali maslahat beruvchilardan ko'ra, kelinchakni yo'ldan uruvchilar ko'pligi meni ajablantirdi. Shunda yoshi katta bir ayol yozdi: "Qizim, oilangiz sirini hammaga ochgandan ko'ra, oila a'zolaringiz bilan yaxshilab gaplashib oling. Maslahatni yaqinlaringizdan so'rang". Ijtimoiy tarmoqda har xil yoshdagi, har xil dunyoqarashdagi kishilar, yosh qizlar, yangi kelinlar bor. Bir alamzada, hayotdan noliydigan insonning noto'g'ri fikrini ular to'g'ri qabul qilishi, bilib-bilmay hayotda amal qilishi mumkin-ku, axir. Bir oiladagi janjalni qancha kam odam bilsa, shuncha yaxshi. Ertaga ular yashib, kelishib ketadi. Ammo sir hamma-ga yoyilgani qoladi. Oilaning mahalladagi obro'yiga putur yetadi. Qolaversa, bunday voqeani targ'ibot qilgandek bo'lib qoladi. Bilgan ham, bilmagan ham o'zicha gapirishni, o'z oilasi bilan solishtirishni boshlaydi. Shu bois har qanday oilaviy mojaro yoki kelishmovchilikni eng oldin o'sha oilaning ichida hal qilish maqsadga muvofiq.

— Ko'p qavatli uyda yashaymiz, — deydi Uchtepa tumanida yashovchi Nozima Boboyeva. — Bahorda to'yi bo'lgan kelinni onasi, akasi, ammasi yangi uyiga qaytarib olib kelgan, shekilli, kuyovnikiga kirishga xijolat bo'lib turishgan ekan. Ancha payt turishgach, tinchlikmi, yordam kerakmasmi, deb so'radim. Uch oylik kelinchakning uy-dagilari bilan janjali sababini eshitib, to'g'risi, Xudodan o'g'limga esli-hushli kelin so'radim. Chunki yangi xonadonga moslashish davrida kelinchak ba'zi bir kelishmovchilik, qaynonasi yoki oila a'zolari bergan tanbehlardan norozi bo'lib telegram ijtimoiy tarmog'idagi dugonalarga "ko'nglini ochgan".

Ular orasida qaynonasining uzoqroq qarindoshi ham bor ekan. Guruhda muhokama qilingan gap-so'zlar aylanib qaynonaning qulog'iga yetib kelgan. Keyin janjal boshlangan. Menga chaqimchi kelinning keragi yo'q, debdi qayno-

na. Rostdan ham, qiyin vaziyat. Ammo shu birgina xato deb yosh oilani buzib bo'lmaydi-ku. Avvalo, yangi kelinga uyali aloqa vositasini berish kerak emas. Bersa ham, hech qanday ijtimoiy tarmoqqa kirishiga ruxsat yo'q. Uzatilayotgan qizlarga esa birovning xonadoniga kirib borar ekan ro'zg'ordagi sir-asrorni nafaqat ijtimoiy tarmoq, balki o'z yaqinlariga ham gapirish to'g'ri emasligini o'rgatishimiz kerak.

Ijtimoiy tarmoqda aytilgan gap yoki qo'yilgan surat bir soniya o'tar-o'tmas ommanikiga aylanishi bugun hech kimni ajablantirmayapti. Shu bois nima yozayotganimiz, qanday surat qo'yishimizga e'tiborli bo'lishimiz shart.

Mahalla fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasiga ajrim masalasida ko'proq yosh oilalar murojaat qiladi. Kimdir turmush o'rtog'i bilan ziddiyatga borgan, boshqa oilada qaynona-kelin kelishmovchiligi. Ammo arzimagan sabab bilan guldek oilani buzayotgan, murg'ak go'daklarni yetim qilayotgan er-xotinlarni qanday tushunish mumkin?

Uchtepa tumanidagi "Zargarlik" mahallasida 5 mingga yaqin kishi yashaydi. Mahalla oqsoqoli, yarashtirish komissiyasi raisi Abdulla Ubaydullayev oilaviy ajrimlar bo'yicha murojaat qilganlar va ularning sabablari xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi:

— Yil boshidan buyon yarashtirish komissiyasiga 6 ta ariza tushdi, — deydi mahalla faoli. — Ularni ro'yxatga olgach, muammoni tinch yo'l bilan hal qilish, oilani imkon qadar saqlab qolish chora-tadbirlarini ko'ramiz. Tuman imom-xatibi va "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi xodimi, otinoyi, poliklinika shifokori, mahalla profilaktika inspektori va faollardan iborat komissiya a'zolari bilan ajrashish istagidagi er-xo-

tinning murojaatini o'rganib chiqamiz. Qabulimga er-xotin kirdi: "Xarakterimiz to'g'ri kelmadi". Tabiiyki, bu oilani ajrashishga olib boradigan sabab emas. Uyiga borib, sharoitini o'rgandik, qo'ni-qo'shnidan surishtirdik. Sezganimizdek, er oila ta'minotini o'ylamaydi. Ro'zg'or aravasini tortish ayolning zimmasida. Sabr kosasi to'lgan ayol boqibeg'am er bilan yashagandan ko'ra ajrashishni afzal ko'rmoqda. Ularga keskin qaror qabul qilmaslik uchun muhlat belgilab, erini ishga joylashtirish tadorigini ko'ryapmiz.

Oilaviy ajrimlar sababi turlicha bo'lishi mumkin. Kuyovning chetga ishlash uchun ketganligi, kelinchakning oilada yolg'iz qolishi, ba'zan oylab xabarsiz ketgan turmush o'rtog'idan najot bo'lmagach, ro'zg'or aravasini o'zi tortishga majbur bo'lgani...

— Yoshlar nikohdan o'tish uchun ariza bergach, tibbiy ko'rik xulosasi bilan birga o'zi yashaydigan mahalladan ham ma'lumotnoma olib borishi kerak, — deydi Abdulla Ubaydullayev. — Ma'lumotnomani biz shunchaki bermaymiz. Avvalo, yoshlarni yo'llanma bilan tuman oila markaziga yuboramiz. U yerda imom-xatib, otinoyi, psixolog, markaz xodimi ishtirokida suhbat o'tkaziladi. Yigit-qizga baxtli oila qurish omillari tushuntirilib, uning muqaddasligini, mehr-oqibat va sadoqat oilaning asosiy ustuni ekanligini uqtiramiz. Suhbatdan o'tib kelgan yoshlar va ularning ota-onasini chaqirib, to'yni ixcham va kamchiqim o'tkazishni, ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatga yo'l qo'ymaslikni tushuntiramiz.

Xonqa tumanidagi Qoraqosh qishlog'i "Mustaqillik" mahallasida yil boshidan beri birorta ajrim qayd qilangani yo'q. Mahalla yarashtirish komissiyasi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida yo'lga qo'ygan bo'lib, ishchi guruhi tarkibi aholi soni va ish hajmiga qarab shakllantirilgan.

— Mahallamizda 5 075 nafar kishi yashaydi, — deydi yarashtirish komissiyasi raisi Ahmadjon Quronboyev. — 943 xonadonda 1 337 ta oila istiqomat qiladi. Yil boshidan buyon yarashtirish komissiyasiga qilingan murojaatlar soni 24 ta bo'lib, birortasi ajrimgacha bormadi. Komissiya o'z faoliyati to'g'risida har oy mahalla fuqarolar yig'ini kengashida, yilning har choragida vakillar kengashi yig'ilishida hisobot beradi. Komissiyaning namunalari faoliyat yuritishida mahallamizda tashkil etilgan "Ibratli qaynotta va qaynonalar" kengashi a'zolarining ham hisssasi katta. Mahalla faxriylari hamisha maslahatgo'y.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan er-xotin munosabatlarini yaxshilashga doir yangi loyihaga qo'l urildi. Parkent tumanida turmush qurish uchun ariza bergan yoshlardan 15 juftlik tanlab olinib, 16 soatlik mashg'ulotga jalb etildi. Agar tajriba kutilgan samarani bersa, loyihani kelgusi yil yanvar oyidan boshlab respublikamizning barcha hududlarida joriy etish rejalashtirilmoqda.

— Oynig har shanbasi mashg'ulot kuni, — deydi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining Toshkent viloyati bo'limi direktori Dilorom Mahamadaliev. — Birinchi dars yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarga bag'ishlandi. Keyingi mashg'ulotlarda oila huquqi, iqtisodi, budjeti, ayol va erkakning vazifalari, vasiylik to'g'risida ma'ruzalar o'qilmoqda. Interaktiv mulotqot yoshlarga manzur bo'lmoqda. Tuman bosh imom-xatibi diniy mavzuda chiqish qildi. Poliklinika shifokori sog'lom oila, reproduktiv salomatlik, bola tarbiyasi haqida ma'lumot bersa, psixolog bolani sog'lom va barkamol rivojlantirishning amaliy jihatlaridan ko'rsatma berdi. Psixologik trening yoshlarda bahs-munozara uyg'otdi. Turli o'yinlar, sahna ko'rinishlari bo'lg'usi oila sobirlari didiga mos tushdi. Oxirgi darsda juftliklarga sertifikat topshirdik. To'ydan keyin ham mashg'ulotda qatnashgan yoshlarni ko'rib, harakatimiz behuda ketmaganiga amin bo'lyapmiz.

Kasallikni davolagandan ko'ra, oldini olgan ma'kul. Demak, oila buzilgach yoki parokanda bo'lish arafasida yoshlarga nasihat qilgandan ko'ra, yigit-qizlarni hayotga munosib tayyorlashning yo'rig'i boshqa. Yoshlar oilaning, ota-onalikning mas'uliyatini, javobgarligini his qilib turmush qurasa, ajrimlarga asos yo'q. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba yigit-qizlarni ahil va totuv oila qurishga chorlash mutasaddi shaxslar zimmasida bo'lishi kerak.

— Talabaga nafaqat ta'lim-tarbiya berish, balki oilaviy hayotga munosib tayyorlash ham pedagogning burchidir, — deydi O'zMU xotin-qizlar qo'mitasi raisi La'lixon Muhammadjonova. — Keyingibeshiyda qizlar bilan birgaparallel ravishda yigitlar bilan ham tushuntirish ishlarni olib bormoqdamiz. Chunki oila faqat ayoldan tarkib topmaydi. Oilaviy janjal ikki kishidan chiqadi. Shu bois bo'lajak otani qat'iyatli, teran fikrli, o'z oilasini himoya qiladigan yuksak ma'naviyatli shaxs etib tarbiyalash erkak kishining zimmasida bo'lishi kerak.

Oila — er-xotindan tarkib topadigan sirli qo'rg'ondir. Illo, hech bir juftlik bir-biridan ayrilmasin. Ota-bobolarimiz ta'biri bilan aytganda, "Chumchuqning ham uyasi buzilmasin".

Rayhona XO'JAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Parkent tumanida turmush qurish uchun ariza bergan yoshlardan 15 juftlik tanlab olinib, 16 soatlik mashg'ulotga jalb etildi. Agar tajriba kutilgan samarani bersa, loyihani kelgusi yil yanvar oyidan boshlab respublikamizning barcha hududlarida joriy etish rejalashtirilmoqda.

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

➤ Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilgan yangi o'rinarlar hisobiga maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 40,5% ga yetkazildi. Ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 6,1% ga oshdi.

➤ Bolalarni qamrab olish darajasi ortishiga quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida erishildi:

— Respublikadagi 14 ta boshqa vazirlik va idoralar faoliyat yuritayotgan va sobiq MTT binolari vazirlik tasarrufiga o'tkazildi;

— 2 ta yangi turdagi eksperimental va 1 ta aralash turdagi, shuningdek, rehabilitatsiya markaziga ega bo'lgan ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTTlar faoliyati yo'lga qo'yildi;

— 8 663 ta boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari va 5 684 ta qisqa muddatli guruhlar faoliyati yo'lga qo'yildi;

— 2019-yil Investitsiya dasturi doirasida 162 ta MTT foydalanishga topshirildi;

— 304 ta faoliyat ko'rsatayotgan MTTning 830 ta bo'sh turgan xonalari mukammal ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi;

— 3 189 ta 97 308 o'rinni davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu ko'rsatkich Respublika bo'yicha umumiy qamrovning 9,1% ini tashkil etmoqda;

— Respublikadagi ijtimoiy turmush darajasi nisbatan past bo'lgan 68 ta tuman va 1 ta qishloqdagi davlat MTTlaridagi ota-onalar to'lovi ikki baravar kamaytirildi.



Maktabgacha ta'lim: erishilgan natijalar va ko'zlangan rejalar

➤ 2019-yilning birinchi yarmiyilida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat budjetidan 1,9 trillion so'm mablag' ajratilib, hisobot davrida 1,7 trillion so'm (91,3%) mablag' o'zlashtirildi.

➤ 1 433 nafar tadbirkor bilan 141 091 quvvatga ega nodavlat MTTlarni tashkil etish uchun davlat-xususiy sherikchiligi bitimlari imzolandi. 84 895 o'ringa ega 3 411 ta oilaviy shakldagi nodavlat bog'chalari ni tashkil etish bo'yicha tadbirkorlar bilan kelishuvga erishildi. Bitim imzolagan tadbirkorlarning 849 nafari umumiy qiymati 1 392 024 million so'm imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

➤ Maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirish, MTTlar qurish va jihozlash bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan bir qator kelishuvlar imzolandi:

• Janubiy Koreya Respublikasining "Chung Design Construction" kompaniyasi bilan 10 million AQSh dollari miqdorida;

• Lukoil Uzbekistan Operating Company bilan 12 million AQSh dollari miqdorida;

• Jahon banki bilan 73,85 million AQSh dollari miqdorida kredit mablag'larini jalb qilish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

➤ Maktabgacha ta'lim tizimida jami 9 339 yangi ish o'rnlari yaratildi.

• Davlat MTTlari ochilishi hisobidan 1 527 ta; • davlat-xususiy sheriklik hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish hisobiga 7 812 ta ish o'rnlari yaratildi.

2019-yil yakunigacha kutilayotgan ko'rsatkichlar:

— Respublikada maktabgacha yoshdagi bolalar qamrov darajasini 44,5% ga, jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizax va Samarqand viloyatlarida ushbu ko'rsatkichni 30% ga yetkazish;

— 6-7 yoshdagi bolalarning qamrovini Toshkent shahrida 100% ga, Respublika bo'yicha 50% ga yetkazish;

— Investitsiya dasturi asosida 2019-yilda amalga oshirilayotgan 461 ta qurilish obyektlaridan 200 tasida qurilish



Ko'zlangan rejalar yangi imkoniyatlarga yo'l ochadi

va jihozlash ishlarini yakunlash hamda foydalanishga topshirish;

— 44 000 quvvatga ega bo'lgan qo'shimcha 1 240 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (40 ta davlat-xususiy sheriklik asosida va 1200 ta oilaviy) faoliyatini yo'lga qo'yish;

— Maktabgacha ta'lim tizimida oliy ma'lumotli pedagog kadrlar ulushini 35% ga yetkazish;

— Respublika bo'yicha 350 ta MTTlarda outsorsing tizimini joriy etish.

Ota-onalar orzusi ushalmogda

Mustaqillik bayrami arafasida diyorimiz o'zgacha tarovatli, fayzli tus oladi. Har jabhada ulkan yangilanish, bunyodkorlik harakatlari bayram shukuhini yanada oshiradi. Maktabga ilk qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchisining hayajoni, oliy o'quv yurti talabasi bo'lgan talabning universitet ostonasiga tolib sifatida qo'ygan ilk qadami, maktabi va sinfdoshlarini sog'ingan o'quvchining entikib yangi bosqichga tadorik ko'rishi, o'quvchilari, boshlanajak o'quv yilini intizor kutayotgan o'qituvchining cheksiz quvonchi — bu yuksak manzara, his-hayajonlar yurtimizda Mustaqillik bayrami nashidasi ufurib turgan bir vaqtda ro'y beradi!

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab mamlakatimizning barcha shaharlarida turarjoyga muhtoj oilalar uchun arzon va har tomonlama qulay uy-joylar qurilishi boshlandi. Bu kabi arzon uylar oxirgi 20—25 yil davomida Toshkent shahrida barpo etilmagan edi. Shaharlarda qurilgan uylar ham asosan qimmat tijorat uylari bo'lib, bu uylarni ijtimoiy himoyaga muhtoj va davlat budjetidan maosh oladigan oilalar olish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

2017-yilda poytaxtimizda jami 5 ming 532 xonadonli 151 ta uy foydalanishga topshirildi. Birgina Sergeli tumanida 4 ming 284 xonadonli 102 ta arzon uylar bunyod etilgan.

2018-yilda poytaxtimizda barcha manbalar hisobidan 11 ming 400 xonadonli 258 ta ko'p qavatli uylar qurildi. Jumladan, uy-joyga muhtoj oilalar uchun Sergeli tumanida 4 ming 992 xonadonli 120 ta, Choshtepa mahallasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun 1 ming 176 xonadonli 21 ta, sobiq chinni zavodi hududida 324 xonadonli 7 ta, Yashnobod tumani Olmos mahallasida harbiylar uchun 900 xonadonli 30 ta ko'p qavatli arzon uy barpo etildi.

Sergeli tumanida dastlab qurib bitkazilgan, 13 gektar maydondagi 66 ta ko'p qavatli uy-joydan iborat 6-"A" mavzesida 240 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasi, 630 o'rinni maktab, 61-sonli oilaviy poliklinika, yopiq turdagi suzish havzasi, shahar ichki ishlar bo'linmasi, pochta va kitob do'koni, dam olish maskanlari, bolalar maydonchalari, avtomobil turarjoylari, velotrassalar aholi xizmatida.

Shundan so'ng, ketma-ket 7-"A", 2-qurilish hududlarida qad rostlagan uylar ham egalari topshirildi. Tumanda hamon bunyodkorlik ishlari avjida. Yana ko'plab zamonaviy turarjoylar, ta'lim maskanlari, savdo markazlari qurilib, aholi xizmatiga topshirilishi kutilmoqda.

Gazetamizning o'tgan sonlaridan birida "Yangi maktab — yangi imkoniyatlar" sarlavhali maqolamizda Sergeli tumanida qurilgan ko'pqavatli binolarga ko'chib kelgan aholi maktab masalasida bir muddat noqulaylikka duch kelgani va joriy o'quv yilidan ushbu muammo o'z yechimini topayotgani haqida xabar bergan edik. Tumanga yangi ko'chib kelgan ota-onalar tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish muammosi borasida ham qanday choralarni ko'rilayotgani bilan qiziqdik. Biz

bilan bog'langan aksariyat ota-onalarning ta'kidlashicha, yangi yillarda istiqomat qilayotgan aholining aksariyati o'tgan bir yil davomida maktabgacha ta'lim muassasalariga farzandini joylashga muvaffaq bo'lmagan.

"Navbatimiz qachon keladi?"

— Qizimni tumandagi bog'chalarning biriga joylash uchun mana bir yildirki, navbat kutaymiz, — deydi 7-"A" qurilish hududida yashovchi Umid Uzoqova. — Uyimizda bolaga qaraydigan odam yo'q, hamma ishlaydi, o'qiadi. Shuning uchun uni o'zimiz ilgari yashagan manzil — Qoraqamish dahasidagi bog'chaga olib borib, kelishga majbur bo'ldik. Biz kabi ko'plab oilalarni shu muammo qiynab kelyapti.

2018-yildan MTTlarga qabul jarayonida korrupsiyaning oldini olish va tizimni shaffof tarzda yuritish maqsadida bolaning hujjatlarini rasmiylashtirish, navbatga qo'yish faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa haddan ortiq yugur-yugurlarning oldini oladi, vaqtning tejashiga xizmat qiladi. E'tiborsiz, har bir ota-onaga bog'chalarning rasmiy veb-sayti orqali muassasaning sig'imi va mavjud bo'sh o'rnlari to'g'risida ma'lumotlar, anketalar ro'yxati hamda navbatga kiritilganlar to'g'risida ma'lumotlar bilan istalgan paytda tanishib borishi mumkin ekan. Shuningdek, nogironlari bo'lgan shaxslar, uch nafar yoki undan ko'p farzandli oilalar, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, talabalar va pedagoglarning bolalari, yetim

bolalar yoki ota-onasining qarorisiz qolgan hamda boshqa muassasalardan o'tkazilgan bolalar, aka yoki opalari ushbu muassasaning tarbiyalanuvchilari bo'lgan bolalarning anketalari imtiyozli ro'yxatga kiritildi. Men ham pedagog bo'lganim uchun farzandimni imtiyozli ravishda qabul qiladigan bo'lishdi, ammo imtiyozli qabulda ham kattagina navbat shakllangan ekan. Mana, yana o'quv yili yaqinlashib kelyapti. Yoz bo'yi opa va akalari, ta'tildagi ota-onasi qaramog'ida bo'lgan bog'cha yoshidagi bolalarni MTTga joylashtirish navbati qachon keladi? Qachon farzandimni uyimizga yaqin hududdagi MTTga joylashtirishga erishamiz?

Ota-onalarni qiziqitirayotgan bunday savollarga aniq javob olish uchun tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri Kamola Nosirovaga murojaat qildik.

Yangi uylar hududida 6 ta yangi bog'cha ochiladi

— Tumanimizda jami 52 ta maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritadi. Shundan 35 tasi davlatga qarashli va 17 tasi nodavlat muassasa. Jami maktabgacha ta'lim tashkilotlari 9 551 quvvatga ega. Tumanda mana ikki yildirki, katta o'zgarishlar bo'lyapti. Bo'sh yotgan yerlarda yangi-yangi massivlar barpo etilmoqda. Ko'zni quvnatadigan zamonaviy uylar minglab uy-joyga ehtiyoji bor oilalarga makon bo'ldi. Bunday vaziyatda ta'lim muassasalariga bo'lgan talab-ehtiyoj keskin o'rtdi tabiiy hol.

Haqiqatan ham, o'tgan 1-1,5 yil mobaynida bu biz va ota-onalar uchun qator muammolarni keltirib chiqardi. Biroq

ushbu muammo tez orada yechimini topadi, buning uchun katta taraddud ko'rilyapti. Bog'chalarga bolalarni to'liq qamrab olish, umumiy quvvatni yanada oshirishga ehtiyoj ortib borayotgani yuzasidan tuman hokimligiga murojaat qilindi. Shundan so'ng, Sergeli tuman hokimligi Toshkent shahar hokimiyatiga xat bilan chiqdi. Natijada hozirda qurilishi davom etayotgan hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalarini barpo etish uchun 50 milliard so'm mablag' ajratildi. Bu mablag' evaziga har biri 385—400 o'rinni 4 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilmoqda. Bu muassasalar 2021-yili bitkazilib, topshirilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, ayni kunlarda Sergeli 5-"A" qurilish hududida 385 o'rinni, "Qumariq" mahallasida 235 o'rinni bog'cha foydalanishga topshirilishi kutilmoqda. Har ikki MTT sentabr oyida o'z ishini boshlaydi.

Xususiy MTTlarga ehtiyoj bormi?

Sergeli tumanida 17 ta nodavlat hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida 2 ta MTT faoliyat yuritayapti. Bu muassasalar guruhlarida bola sonining oziqligi, o'quv mashg'ulotlarining zamonaviy, interaktiv metodlarda tashkil etilishi, ingliz, rus tillari va qator sport va san'atga oid to'lovlar muntazam faoliyat yuritishi bilan ajralib turadi. Ammo har oy kredit to'lovi bilan yashayotgan aholining aksariyatiga xususiy bog'chada belgilangan to'lov miqdori qimmatlik qiladi.

— Xuddi biz kabi ko'pchilik qo'shimchalarimiz har kuni ishdan bo'lishadi, — deydi 7-"A" qurilish hududida yashovchi Guli Rahimberdiyeva. — Ish-

lamasak, kredit to'lovini qanday to'laymiz? Ishlashimiz uchun esa bolalarimizni bog'chaga joylashtira olishimiz kerak. Bu esa katta muammoga aylanib qoldi. Navbat yetib kelmayapti. Uyimizga yaqin joyda xususiy bog'chalar ham bor, lekin bizga qimmatlik qiladi. Axir ikki bolam bog'cha yoshida. Shu sabab, bizning hududda davlatga qarashli MTT ochilishi kerak, deb o'ylayman. Uyimizning pastki qavatida uy bog'chasi qurildi, ammo hali foydalanishga topshirilmadi. U ham xususiy MTT ekan, deb eshitdik. Demak, biz uchun orzulichga qoladi.

Darvoqe, yodingizda bo'lsa, Sergeli tumanida pilot loyiha sifatida yangi qurilayotgan ko'pqavatli uylarning 1-2-qavatlarida bolalar bog'chalari tashkil etilishi ustida ish boshlangan edi. Bugunga kelib yangi qurilgan 4 ta ko'pqavatli turarjoy binosida ana shunday MTTlar tayyor holga keltirildi. Har biri 50—75 o'rinni ushbu bog'chalarda zamonaviy shart-sharoitlar yaratildi. Mazkur bog'chalar haqidagi ota-onalarni qiziqitirayotgan savollarni jamlab yana tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudirasiga yuzlandik.

— Quvonarlisi, endi bu bog'chalar davlat tasarrufiga o'tkazilmoqda, ularning xususiy yoki davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida bo'lishi, tabiiyki, narxining qimmatlashishiga olib keladi, — deydi Kamola Nosirova. — Yangi massivlarda istiqomat qilayotgan aholining xususiy bog'chaga emas, davlat MTTga ehtiyoj sezayotganini inobatga olib, bu muassasalar tuman maktabgacha ta'lim bo'limi ixtiyoriga o'tkazilmoqda va sentabr oyida foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Mazkur bog'chalar zamonaviy tipda qulay qilib qurilgan. Mo'jazzina hovlida bolalar maydonchalari tashkil etilib, mevali va manzarali daraxtlar ekildi, turli o'yingohlar qurildi. Eng qizig'i, ota-onalar farzandlarini hovlida o'ynayotgan holda yuqoridan turib kuzatishlari, ichkarida bo'lganida esa bemaol kirib ko'rishi mumkin bo'ladi. Oshxonasi "Kettrin" usulida tashkil etilib, ovqatlar



boshqa joyda tayyorlanib konteynerlarda olib kelinadi. Bunday MTTlar hozircha 2- va 7-"A" qurilish hududida tashkil etildi.

"2020-yilgacha bolalarni 100 foiz qamrab olamiz"

Maktabgacha ta'lim tizimining o'z oldiga qo'ygan maqsadini to'la-to'kis amalga oshirishda bugun tumanda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Eng avvalo, qamrov foizini oshirishda bu kabi qurilish-bunyodkorlik ishlaridan tashqari, qo'shimcha choralar ham ko'rilyapti. Xususan, tuman MTB balansida turgan, ammo shu vaqtga qadar tizimga aloqasi bo'lmagan turli tashkilotlar foydalanib kelgan 3 ta MTT binosi qaytarib olindi. Kelgusida bu yerlarda ham yangi bog'chalar tashkil etish ustida ish olib borilyapti.

— 2020-yilgacha bolalarni MTTga 100 foiz qamrab olamiz, — deydi Kamo-

la Nosirova. — Bu muammo ustida jiddiy ishlayapmiz va ijobiy natijani qo'lga kiritamiz. Bundan tashqari, Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ilgari surilayotgan boshqa maqsadlarga ham erishaymiz. Masalan, tumandagi barcha MTTda hozirda sanitariya-epidemiologiya me'yorlariga to'liq amal qilgan holda ovqatlanirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bog'chalarimizning hammasida bir xil me'yorlarda ovqat tayyorlanadi. Kunlik taomnoma ob-havoga moslashtirilgan holda tuziladi. Shuningdek, hozir ota-onalar talabi bilan kuzatuv kengashi qarori asosida kech soat 19:00 gacha, shanba-yakshanba kunlari ham faoliyat yuritadigan qo'shimcha pullik guruhlar tashkil etilyapti. Bu ko'plab ota-onalarning mushkulini oson qilmoqda. Bu kabi islohotlar natijasida yaqin yillarda har bir davlat bog'chasi sharoit xususiy bog'chalaridagidek shart-sharoitga tenglasha oladi, deb ishonaman.

Zilola MADATOVA,
"Marifat" muxbiri

Avgust kengashlari davom etmoqda



Avgust kengashlarining Toshkent viloyati o'quv-seminari Angren shahridagi 18-umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi.

Dastlab "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari", "Umumiy o'rta ta'lim mazmuni: 2019-2020-o'quv yili tayanch o'quv rejas, o'quv dasturi va darsliklardagi

o'zgarishlar" mavzusida ma'ruzalar tinglandi. Shundan so'ng ishtirokchilar guruhlariga bo'linib, sho'ba yig'ilishlari mashg'ulotlarida qatnashishdi.

11 ta sho'ba seminarlarida pedagoglar o'z fanlari yuzasidan dolzarb masala va muammolarga doir mavzularda ma'ruzalar tingladi. Xususan, "Maktab rahbarlari—ta'lim menejerlarini tayyorlashning dolzarb masalalari", "Boshlang'ich ta'limda interaktiv ta'lim muhiti", "Filologiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv", "Chet tillarini o'qitishda ilg'or pedagogik va CLIL metodlar" kabi ma'ruzalar va interaktiv mashg'ulotlarda o'quv yili oldida turgan o'qituvchilar talay yangiliklardan boxabar bo'ldilar.

Aziza SATTOROVA,
Angren shahar XTB defektologi



Yashnobod tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan o'tkazilgan an'anaviy avgust kengashlari 29 ta maktab pedagoglari o'rtasida uyushqoqlik bilan o'tkazildi.

— Kengashda qatnashgan fan o'qituvchilari xalqaro baholash tizimidagi tadqiqotlarda qatnashish uchun o'zbek tili ta'limida matn ustida ishlash, yangi islohotlar davrida zamonaviy qarashlar, yangi talablar asosida yaratilgan darsliklardagi o'zgarishlar, QR-code

qanday yaratilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishdi, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Latofat Mirzoqulova. — Shuningdek, informatika, matematika, kimyo, fizika, rus tili va adabiyoti fanlariga doir metodik takliflar berildi.

Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri So'bir Mamadaliyev tadbirida o'tgan yil davomida samarali mehnat qilgan 51 nafar fidoyi va ilg'or o'qituvchilarni taqdirladi.

Sh.BOYMURODOVA

Mirzo Ulug'bek tumani maktablarining ijtimoiy fan o'qituvchilari avgust kengashini O'zbekiston tarixi davlat muzeyida o'tkazdilar.

Dastlab tuman metodistlari yangi o'quv yili bilan bog'liq yangiliklar, ta'lim sifati, ijtimoiy fanlarni o'qitishga doir muammo va kamchiliklar haqida ma'ruza qildilar.

So'ngra pedagoglar kichik guruhlariga bo'linib, sho'ba seminarlarida ishtirok etishdi. Har bir sho'ba ilg'or pedagoglar boshchiligidagi dolzarb mavzular muhokama qilindi.

Nargiza RUSTAMOVA

Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari ham ayni kunlarda an'anaviy avgust kengashlarida ishtirok etib, sohaga oid dolzarb masalalarni muhokama qilishmoqda. Jumladan, Toshkent yengil-sanoat va to'qimachilik instituti qoshidagi akademik litseyda Yak-kasaroy tumani maktabgacha ta'lim bo'limining avgust anjumanlari o'tkazildi.

Kengashda tuman MTB tomonidan 2018-2019-o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi va yangi o'quv

yiliga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi. MTT mudiralari, uslubchi va psixologlari, defektologlar, musiqa rahbarlari va jismoniy tarbiya yo'riqchilari, kichik va o'rta guruh tarbiyachilari, katta va tayyorlov guruhi tarbiyachilari, hamshiralar alohida sho'balarga bo'linib, o'z faoliyatlariga doir masalalar ustida ishladilar.

Anjuman ishtirokchilariga yangi o'quv yilida foydalanish uchun o'quv qo'llanma va dasturlar taqdim etildi.

Z.MADATOVA



Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan "Ta'limda islohotlar: o'zgarishni o'zimizdan boshlaylik" shiori ostida an'anaviy avgust kengashlariga bag'ishlangan viloyat o'quv seminari tashkil etildi.

Avgust kengashlari yalpi yig'ilish va 28 ta sho'ba kesimida o'quv mashg'ulotlari tarzida o'tkazildi. 865 trener-o'qituvchi va 154 nafar ta'lim muassasasi rahbari ishtirok etgan tadbirida tuman va shaharlarda o'tkaziladigan avgust

kengashlari o'quv seminarlariga trenerlar tayyorlandi.

Sho'balarda Xalq ta'limi vazirligi va RTM tomonidan tavsiya etilgan materiallar, 2019-2020-o'quv yilida amalga oshiriladigan ishlar muhokama etildi.

O'quv-seminarda so'zga chiqqanlar 2019-2020-o'quv yili

oldidan ta'lim muassasalari rahbarlarining mas'uliyati va tashabbuskorligini, tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy salohiyati va mahoratini oshirish, o'quv dasturlari va darsliklardagi yangiliklar, o'zgarishlar bilan yaqindan tanishtirish, yangi o'quv yilidagi muhim va ustuvor vazifalarni belgilab olish kabi dolzarb mavzularga e'tibor qaratdi.

Sevin OCHOILOV,
viloyat xalq ta'limi boshqarmasi bosh metodisti

Poytaxtimizdagi 280-maktabda Chilonzor tumani xalq ta'limi bo'limi ta'sarrufidagi 32 ta maktab rahbari va pedagoglari ishtirokida avgust kengashining yalpi va sho'ba yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Sho'ba yig'ilishlarida "Ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish", "Maktab rahbarlarida menejerlik layoqatini shakllantirish", "Dars jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish" kabi masalalar ko'tarildi. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari namoyish etilishi bilan birga, sohadagi muhim muammolarga yechim bo'luvchi takliflar ham o'rganildi.

MUXBIRIMIZ



Yumusbod tumanidagi 273-maktabda ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, maktab psixologlari va maktab logopedlari ishtirokida navbatdagi avgust kengashi tashkil etildi.

Unda "5 tashabbus — 5 imkoniyat", "Voyaga yetmagan o'quvchi yoshlarni ta'lim muassasasining ichki pedagogik nazoratiga olish tartibi" mavzusida seminar-treninglar bo'lib o'tdi.

— Seminarda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus bo'yicha bajarilgan ishlar muhokama qilindi, — deydi Zahro Musaboyeva. — Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikalari psixologlar tomonidan tushuntirib o'tildi. Albatta, bu treninglar amaliyotda biz uchun muhim ahamiyatga ega. Ular orqali qatnashchilar yangidan yangi ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

N.SHUKUROVA



Kitobxonlik sabog'i

Kattalar ibratini va rag'batini

Kitob barcha tilsimlar kaliti sanalib, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish va ma'naviyatni yuksaltirishdagi asosiy vositadir. Shu nuqtayi nazardan keyingi yillarda shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan kitob mutolaasi va uning targ'ibotiga katta e'tibor berilib kelinmoqda.

2017-yilning 12-yanvar kuni imzolangan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Prezident Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarorlari so'zimizning yaqqol isbotidir.

Yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari qadimi va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilmiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida o'tkazilib kelinmoqda.

Yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berilib, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish yuzasidan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning to'rtinchisi ham yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgandir.

Hozir yurtimizning istalgan viloyat, tuman yoki chekka qishloqlarida ham "Kitob dunyosi", "Kitoblar shaharchasi", "Kitoblar olami" deb yozib qo'yilgan maskanlarga ko'zingiz tushadi. Bu, albatta, quvonarli holatdir. Olib borilayotgan oqilona islohotlarning ijobiy natijasi desak ham bo'ladi. Biroq o'sha maskanlarga yosh avlodni jalb qilish jarayonlari qanday kechmoqda? Kitob

bilan do'st tutinishi uchun yoshlar bilan qanday yondashuvlar asosida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bu borada so'z ketar ekan, o'z-o'zidan to'g'ri yo'ldan borish, masalaning yechimini topish uchun qilingan harakatlar, avvalo, ota-onalarga, pedagoglarga hamda rahbar xodimlarga borib taqalaveradi. Aytishingiz mumkin, bolaning o'zida xohish bo'lishi kerak, deb. Lekin o'sha xohishni shakllantirishda ota-ona, pedagog, rahbar xodim, albatta, muhim rol o'ynaydi. Bu fikrni hayotiy misollar bilan izohlab bermoqchiman.

Hech e'tibor qilganmisiz, bolaligidan ota-onasi, buvasi yoki buvisidan ertak eshitib ulg'aygan, keyinchalik harf taniganda ertak kitoblarni mutolaa qilib voyaga yetgan o'spirin boshqa tengdoshlaridan ajralib turadi. Bunday bolalar samimiyligi, ezigulikka bo'lgan intilishi, adolatsizlikka jimgina tomoshabin bo'lmasligi bilan ajralib turadi, muxtasar qilib aytganda ko'pgina insoniylik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirishga harakat qiladi. Albatta, bularning hammasi o'sha bolalikdagi ertaklar natijasi o'laroq vujudga keladi.

**Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim,
So'zlab berardi buvim...**

Bu mashhur misralar, anglaganigizdek, zabardast ijodkor Hamid Olimjonning ijod mahsuli. Hamid Olimjondek insonlarning qalb torlarini chertuvchi, go'zal bir ichki hissiyotlarini junbushga keltiruvchi asarlar muallifining yuksak ijodkor darajasiga yetishishida bolalikdagi tinglagan ertaklari poydevor bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ne ajab?!

Ana endi bolaning kitobxon bo'lib shakllanishida pedagog xodimlarning tutgan o'rni to'g'risida biroz mulohaza qilsak. Tarixdan ma'lumki, so'z mulkining sultoni hazrat Navoiyga bolalik chog'laridan o'z davrining buyuk shoiri Lutfiy ustozlik qilgan. Navoiy bobomiz 11-12 yoshlarida shunday misralarni ijod qiladi:

**Orazin yopqach ko'zumdin
sochilar har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur yulduz,
nihon bo'lg'ach quyosh.**

Alisherbek ushbu ijod mahsulini ustoz Lutfiyga o'qib beradi. Shunda Lutfiy hazratlari bu she'rga munosabat bildirar ekan, "Mana shu ikki misra uchun umrim davomida yozgan o'n ikki ming misra she'rinni almashtirib bo'lar edim", deya lutf qiladi. Fikrimcha, bu gaplarni



Lutfiy yosh Navoiyning ijodga va kitobga bo'lgan mehrini yanada rag'batlantirish uchun aytgandek, go'yo. Albatta, yosh shoirning ushbu misralari tahsinga loyiq, ammo kelajakda Navoiyning yuksak ma'naviyatli inson va ijodkor sifatida ma'lum va mashhur bo'lishida, ustoz Lutfiyning kerakli vaqtda tanbehi, kerak bo'lganda rag'batini hamda shogirdi tarbiyasiga bo'lgan oqilona yondashuvi muhim ahamiyat kasb etgan deb o'ylayman.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori Jahongir Mamatqosimov pedagogik faoliyatida ham talabalarni ma'naviy rag'batlantirish birlamchi omil sifatida qaraladi.

Jahongir aka pedagogik faoliyatida talabalarga rag'bat sifatida badiiy kitob sovg'a qiladi va keyingi mashg'ulotlarda, albatta, shu kitob yuzasidan muhokama o'tkazadi. Demakki, har haftaba bitta badiiy adabiyot tahlili. Badiiy adabiyot tahlilida faol ishtirok etgan talabalar yana badiiy kitob bilan rag'batlantiriladi va jarayon shu tariqa davom etib boraveradi.

Tahlil va munozara davomida tabiiyki talabaning qaysidir kitobga nisbatan qiziqishi ortib, uni insensirovka qilishga va sahnalashtirishga kirishadi. Bunday mohirona yondashuv pedagogning izlanuvchanligidan, qolaversa, o'z kasbining fidoyisi ekanligidan darak beradi.

Yuqorida rahbar xodimlar ham jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirishda muhim mavqega ega shaxs sifatida tilga olindi. Bu masalani ham hayotiy bir misol bilan izohlasak. Chamasi 4-5 yillar oldin edi. Mamasaid ismli bir akamiz bilan tez-tez hamsuhbat bo'lib turardik. Shunday subhatlarning birida kitobxonlik to'g'risida ancha guruh qildik. O'sha hamsuhbatim juda bir qiziq voqeani bayon qilib qoldi.

Jizzax akkumulyator zavodi nafaqat viloyatda, balki respublikada ham ya-

gona sanaladi. Bu zavodning moddiy bazasi juda ham mustahkam, har bir xodimining iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli talab darajasida shakllangan hisoblanadi. O'sha davrlarda zavod rahbari, hozirda O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratillo Rafiqov xodimlari o'rtasida kitobxonlikka katta e'tibor qaratgan edi.

... Bir kuni yosh, kelishgan bir yigit zavod rahbarining qabuliga keladi. Va shu zavodda hisobchi bo'lib ishlash niyati borligini aytib, o'z hujjatlarini rahbarga taqdim qiladi. Qudratillo Rafiqov ko'radiki, yigit xorijiy davlatda nufuzli universitetning iqtisodiyot yo'nalishini a'lo baholarga tamomlagan. Rahbar bundan mamnun bo'ladi va yigitga shunday savol beradi: "O'g'lim, diplomingiz va undagi ko'rsatkichlaringizga gap bo'lishi mumkin emas, barakallo. Menga aytinch, o'zbek yoki chet el yozuvchilarining kitoblari mutolaa qilganmisiz, keling shu to'g'risida biroz fikr almashsak..."

Bunday savolni va taklifni kutmagan yosh iqtisodchi ko'zlarini yerga qadagancha, "Men hech qanday badiiy kitob o'qimagan ekanman, faqatgina o'z mutaxassisligimni o'rganganman", deya javob beradi. Javobni eshitgan rahbar "Kechirasiz o'g'lim, sizga maslahatim, besh-o'ta badiiy asarlarni olib o'qib chiqing, mag'zini chaqing va tafakkur qilib g'oyasini tahlil etib ko'ring. Ana undan keyin bir oldimga kelsangiz ish masalasini o'ylab ko'ramiz..." degan ekan.

Bu voqega qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki Q.Rafiqovning ish kabinetida ko'plab kitoblar va buyuk donishmandlarning hikmatli so'zlaridan tashkil topgan "aforizmlar burchagi" ham joy olgan ekan. Har bir rahbar qo'l ostidagi xodimlarining mutolaaga bo'lgan munosabatini Qudratillo Rafiqovdek sinchkovlik bilan shakllantira olsa, bu foydadan xoli bo'lmas edi.

Muhammadjon EGAMQULOV,
O'zbekiston Davlat san'at va
madaniyat instituti magistranti

Hozir yurtimizning istalgan viloyat, tuman yoki chekka qishloqlarida ham "Kitob dunyosi", "Kitoblar shaharchasi", "Kitoblar olami" deb yozib qo'yilgan maskanlarga ko'zingiz tushadi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi

“OAVlarda millatlararo bag'rikenglik va do'stlikni, tinchlik va barqarorlikni keng targ'ib etish” mavzusida Davlat grantlari ajratish uchun tanlov E'LON QILADI:

Tanlovga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining quyidagi maqsadlarni nazarda tutgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha buyurtmanomali qabul qilinadi:

— ajdodlar tomonidan to'plangan tarixiy, madaniy meroslarni asrab-avaylash, uning o'sib kelayotgan avlod tarbiyasida zarurligi borasidagi jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

— milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylashga, xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish;

— O'zbekistonda yashab kelayotgan turli millat va elatlarning azaliy milliy an'analarini, urf-odatlarini, udumlarini saqlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish;

— madaniy merosni saqlash, aholi o'rtasida madaniy merosga bo'lgan munosabatni yanada yuksaltirish, ularni kelajak avlodga bekorlik bilan yetkazish va madaniy merosga bo'lgan munosabatni shakllantirish borasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

— mamlakat madaniy-tarixiy merosini ommalashtirishga, tarixiy sayyohlik qadamlarini tanitishga, ularning faoliyatini targ'ib etishga qaratilgan OAV loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

— milliy madaniy markazlar tomonidan mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi turli xildagi to'plamlar, ijodiy ishlarni chop etishga, xalq ommasiga yetkazishda har tomonlama ko'maklashish;

— O'zbekistonning tinchlik va barqarorlikni, fuqarolar totuvligini ta'minlash sohasidagi yutuqlari, mamlakatdagi bag'rikenglik tamoyillari, tarixiy va madaniy meros, aholining urf-odatlarini, qadriyatlarini to'g'risida axborot, tahliliy materiallar va yangiliklarni milliy va xorijiy OAVda keng yoritish;

— jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analarini, urf-odatlarini va marosimlarini saqlash hamda rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xalqaro jamoatchilikni xabardor qilish;

— millatlararo do'stlik va hamjihatlik, birdamlikni yanada mustahkamlash, konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirish;

— milliy hunarmandchilik sohasida ustoz-murabbiylik an'analari yanada rivojlantirish, keksa avlodning bilimni, tajribasi va mehnat salohiyatidan foydalanish, ularni hayotga tatbiq etishga ko'maklashish;

— turizmning tarixiy-ilmiy, ekologik, faol, gastronomik va boshqa turlarini xorijiy auditoriya o'rtasida ommalashtirish orqali O'zbekistonning sayyohlik hamda madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;

— turizmni rivojlantirishda muhim o'rin tutadigan yangi madaniy sayyohlik yo'nalishlarini tashkil etishga, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishga, innovatsion texnologiyalarni jalb etishga ko'maklashish.

Davlat granti tanlovida ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Tashkilot rahbari tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan kuzatuv xati.
 2. www.fundngo.uz veb-saytida joylashtirilgan shaklda to'ldirilgan davlat granti loyihasi uchun ariza.
 3. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Ustav (Nizomi) hamda guvohnomaning muhr bilan tasdiqlangan nusxasi.
 4. Agar loyihani amalga oshirish litsenziyalanadigan faoliyatni talab qilsa, unda litsenziyaning nusxasi taqdim etiladi.
 5. Manfaaddor davlat va yirik jamoat tashkilotlari bilan tuzilgan ijtimoiy sheriklik qo'shma rejalari ilova qilinishi mumkin.
- Bitta loyiha uchun davlat granti miqdori — 30 million so'mgacha.
- Hujjatlar 2019-yil 23-avgustdan 25-sentabrgacha qabul qilinadi.
- Hujjatlar “Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi” nomiga: 100163, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 43-uy manziliga “O'zbekiston pochta” orqali muhrlangan konvertida (A4 formatda) yuborilishi shart.
- Hujjatlar namunalari bilan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining www.fundngo.uz rasmiy veb-saytida tanishish mumkin.
- Ma'lumot uchun telefonlar: (0-371) 239-26-76, 239-26-86.**

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi

“Jamiyatda yuksak ma'naviyatni va qonun ustuvorligini ta'minlashga ko'maklashish” mavzusida Davlat grantlari ajratish uchun tanlov E'LON QILADI:

Tanlovga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining quyidagi maqsadlarni nazarda tutgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha buyurtmanomali qabul qilinadi:

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy qoidalarini, tamoyillari va maqsadlarini ochib berishga, qonun me'yorlari haqida bilimlar targ'ibotiga qaratilgan maxsus nashrlar, maqolalarni tayyorlash va chop etish;

— aholi o'rtasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilishga, aholining huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashish;

— davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlashda NNT faolligini oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

— qonunlarning insonlar hayotiga real ta'sir darajasi va aholi bilan muloqotning yangi usullarini, qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli va ahamiyatini yuksaltirishda ijtimoiy sheriklikning innovatsion usullarini joriy etish;

— sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirishga, aholining turmush darajasini yaxshilashga, mahallalar obodligini ta'minlashga ko'maklashish;

— aholining ma'naviy-axloqiy, psixologik bilimlarini oshirish, oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashni qo'llab-quvvatlash;

— keksa avlod vakillariga g'amxo'rlik ko'rsatish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshi ulug' insonlarni e'zozlash, hurmatlash, yoshlar tomonidan ularning hayotiy tajribalarini o'rganish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish tuyg'usini shakllantirishga ko'maklashish;

— nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratish, hayotni yaxshilash, mehnat faoliyatiga moslashtirishga yordam ko'rsatish;

— yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, fidoyilik tuyg'ularini qaror toptirishga ko'maklashish;

— ayollar, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

— voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

— odam savdosi, noqonuniy mehnat migratsiyasidan jabr ko'rgan aholiga tizimli profilaktik targ'ibot, tashviqot va rehabilitatsiya chora-tadbirlarini amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini ta'minlash.

Davlat granti tanlovida ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Tashkilot rahbari tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan kuzatuv xati.
 2. www.fundngo.uz veb-saytida joylashtirilgan shaklda to'ldirilgan davlat granti loyihasi uchun ariza.
 3. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Ustav (Nizomi) hamda guvohnomaning muhr bilan tasdiqlangan nusxasi.
 4. Agar loyihani amalga oshirish litsenziyalanadigan faoliyatni talab qilsa, unda litsenziyaning nusxasi taqdim etiladi.
 5. Manfaaddor davlat va yirik jamoat tashkilotlari bilan tuzilgan ijtimoiy sheriklik qo'shma rejalari ilova qilinishi mumkin.
- Bitta loyiha uchun davlat granti miqdori — 30 million so'mgacha.
- Hujjatlar 2019-yil 23-avgustdan 25-sentabrgacha qabul qilinadi.
- Hujjatlar “Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi” nomiga: 100163, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 43-uy manziliga “O'zbekiston pochta” orqali muhrlangan konvertida (A4 formatda) yuborilishi shart.
- Hujjatlar namunalari bilan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining www.fundngo.uz rasmiy veb-saytida tanishish mumkin.
- Ma'lumot uchun telefonlar: (0-371) 239-26-76, 239-26-86.**

Narziyeva Nargiza Norkuziyevnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Umumta'lim maktab o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.03.2018.Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) tarixi ixtisosligi bo'yicha "Adabiy ta'lim uzviyligi asosida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish (V—IX sinflar misolida)" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.03.2018. Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Umurov Zarif Latifboyevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiy muammolariga oid didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.03.2018. Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Zoxidova Sanoat Raxmonovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.03.2018. Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Turdiyev Dilshod Xamidovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika) tarixi ixtisosligi bo'yicha "Akademik litseylarda pedagogik texnologiyani qo'llab, geometriyani o'qitish metodikasi va amaliyoti" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.03.2018. Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Yusupov Doniyorjon Madaminovichning 14.00.06 — Kardiologiya ixtisosligi bo'yicha "Miokard infarktida endotelial disfunktsiya: klinik-genetik aspektlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26.04.2018. Tib.64.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 234-16-67; e-mail: info@cardiocenter.uz

Turdiyev Muhammad Rustamovichning 14.00.06 — Kardiologiya va 14.00.33 — Jamiyat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo'yicha "Yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasini optimallashtirishning tibbiy-ijtimoiy jihatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26.04.2018. Tib.64.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 234-16-67; e-mail: info@cardiocenter.uz

Djambekova Gulnara Suleymanovnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Respirator allergiya profilaktikasini molekulyar sistematishtirish va multipleks analiz asosida O'zbekiston aholisining sensibilizatsiya pasportini ishlab chiqish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2018. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Xusenov Arslonnazar Shernazarovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Inulin hosilalari: sintezi, xossalari va ishlatilishi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. T.04.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.

Tel/faks: (71) 244-79-20, 262-79-17; e-mail: tkti@mail.uz

Vapayev Murodjon Dusummatovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi va 02.00.07 — Kompozitsion, lok-bo'yoq va rezina materiallari kimyosi va texnologiyasi ixtisosliklari bo'yicha "Organik tezlashtirgichlar va ular asosida elastomer kompozitsion materiallar olish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. T.04.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.

Tel/faks: (71) 244-79-20, 262-79-17; e-mail: tkti@mail.uz

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti kafedralardagi bo'sh o'rinlarga TANLOV E'LON QILADI!

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida bo'yicha — **kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi.**
2. Medialar nazariyasi va amaliyoti kafedrasida bo'yicha — **kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi.**
3. Medialingvistika kafedrasida bo'yicha — **kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi.**
4. PR va xalqaro kommunikatsiya kafedrasida bo'yicha — **kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi.**
5. Raqamli media va internet kafedrasida bo'yicha — **kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi.**

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, **falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science)** ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko'ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (**Doctor of Science**) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, **falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science)** ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (**magistr, diplomli mutaxassis**), shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (**PhD**) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'lgan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

O'qituvchi (assistent) o'qituvchi-stajyor lavozimini egallash uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (**magistr, diplomli mutaxassis**) qatnashishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etishni xohlaganlar quyidagi hujjatlar nusxalarini taqdim etadilar:

- rektor nomiga ariza;
- xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa;
- diplomlar va attestatlar nusxalari;
- ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati;
- malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjatlar nusxalari.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, "Markaz-5", 88-uy.

Murojaat uchun telefon raqami: (71) 207-09-06.

Eslatma: Mazkur oliy ta'lim muassasida ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradilar, chetdan tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslarini o'tkazadilar.

Asliyatdan tarjima

Rahmat sizga, oyi...

To'ladan kelgan bir ayol ichiga hamma narsa sig'adigan katta sumkasi bilan yo'lak bo'ylab ketib borardi. Aslida, sumkada bolg'acha va mixdan boshqa hech narsa yo'q edi. Sumkaning bog'ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olgancha ko'cha bo'ylab yolg'iz ketardi. Soat tungi o'n birlarda uning yoniga g'izillab bir bola keldi va ayolning sumkasini yelkasidan yulqib oldi. Ayol o'ziga kelmay turib, bog'ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzilib, bolaning qo'lidan tushib ketdi. Sumkaning og'irligidan muvozanatini yo'qotgan bola qo'lidagi sumka bilan yerga yiqildi va oyog'i jarohatlandi. Ayol esa bamaylixotir bolaning yelkasidan turtib jahl bilan turg'azdi.

— Qani, mening hamyonimni joyiga qo'ygin-chi, — dedi uni qo'yib yubormay. — Xo'sh, qilgan ishingdan afsuslanayapsanmi endi?

Ko'yligidan mahkam qisilgan bola javob berdi:

— Ha...
— Bunday qilib nimaga erishmoqchi eding?

— Hech nimaga.
— Aldayapsan.

Bir-ikki yo'lovchi ularga hayron bo'lib qaragancha o'tib ketardi. Ba'zilar esa shu yerda turib ularni kuzata boshladi.

— Hozir seni qo'yib yubor-sam, qochasan, shundaymi?
— Ha, — dedi bola.

— Shuning uchun ham qo'yib yubormayman.

Ayol uni mahkam ushlab olgandi.

— Men juda afsusdaman, xonim. Meni kechiring... — pichirladi bola.

— A-ha, yuzing ham juda kir bo'lib ketibdi. Yaxshisi, yuzingni yuvib qo'yishim kerak. Uyingda birotasi yuzingni yuv, deb

aytmaydimi?

— Yo'q...

— Unda bu kech yuvilar ekan-da, — dedi ayol va cho'chigan bolani yelkasidan ushlagancha ko'cha bo'ylab keta boshladi.

Bola 14-15 yoshlarda, juda zaif va yovvoyi edi. Tennis oyoq kiyimi va ko'k jinsi kiygan edi.

— O'g'lim yetib ekan-san. Senga nima yaxshi-yu, nima yomonligini o'rgatishim kerak. Tarkibiyani yuzingni yuvishdan boshlaymiz. Qorning ham ochdir?


— Yo'q, to'qman, meni qo'yib yuborsangiz bo'ldi.

— Seni anavi yerda ketayotib bezovta qilganmidim?

— Yo'q.

— Sen o'zing meni bezovta qilding, o'zing boshlading, to'g'rimi? Meni, missis Luella Betes Vashington Jonesni eslab yurasan hali.

Ayol uyiga yetib kelgach, bolani ichkariga kiritdi. Kiraverishda kichikkina yemakxona bor edi. Ayol chiroqni yoqdi va eshikni ochiq qoldirdi. Bola qo'shnilar-



(hikoya)

ning uyidan eshitilayotgan ovozlarni, kulgilarni bemalol tinglay olardi. Ularning ba'zilarining eshigi ularniki kabi ochiq edi, demak, ular ayol yolg'iz emasligini ham bilishdi. Ayol haligacha bolaning yelkasidan ushlab olgancha xona o'rtasida turardi.

— Isming nima, bolakay?
— Rojer.

Demak, Rojer, hozir yuvinish xonasiga borib, yuzingni yaxshilab yuvib kelasan. Nihoyat, ayol bolani asta "changali"dan bo'shatdi. Rojer bir ochiq eshik tomonga, bir yuvinish xonasi tomonga qaradi. Keyin beixtiyor yuvinish uchun yo'l oldi.

— Suv isiguncha biroz kutib tur, — tayinladi ayol. — U yerda sochiq ham bor.

— Meni qamoqxonaga top-

shirasizmi? — so'radi bola yuvinish xonasidan turib.

— Yuvinmasingdan turib seni hech qayerga olib chiqolmayman, — dedi ayol. — Men bu yerda yeyishga biror taom tayyorlash niyatida yuribman-u, sen esa hamyonimni olmoqchi bo'lding-a? Sen uyingga kechki ovqatga kechik-maysanmi?

— Uyimda hech kimim yo'q.

— Unda birga ovqatlar ekanmiz-da, bilaman, qorning ochiqqan. Axir, shuncha mehnat qilib, och qolmay bo'ladimi?

— Men faqat zamsh tufli olmoqchi edim...

— Sen buni hamyonimdan o'g'irlab emas, o'zimdandan so'rab ham olishing mumkin edi, — dedi Luella xonim. — Ha, o'zimdandan...

— Oyi? — yuzidagi

suv tomchilari bilan unga tikilib turgan bola bu so'zni beixtiyor aytib yubordi. Ular jim qoldilar... Uzoq jim qoldilar. Nihoyat, bolaning yuzi quridi, u nima qilishini bilmay, sochiqni olib yuzini yana artdi. Eshik hamon ochiq edi. Bola hozir shunday borsa, tamom, qochaveradi, qochaveradi...

Ayol kursida o'tirar edi. U birinchi bo'lib gap boshladi:

— Yoshligimda qo'lim yetmaydigan narsalar meniki bo'lishini juda xohlardim.

Bola qoshlarini kerib ayolga qaradi.

— Ha, shunday bo'lgandi. Senga hech kimning hamyonini o'g'irlamaganman, deb aldashni xohlamayman. Buni senga aytmoqchi emasdim. Shunday ishlar qilganman, buni faqat Xudo biladi, o'g'lim. Xo'sh, ana endi chiroyli bolaga aylanibsan.

Xonaning narigi chetida gaz

Lengston XYUJES

plita va muzxona bor edi. Ayol o'midan turib o'sha tomonga ketdi. Ortiga qaramadi: ayol kurgacha hamyonini atay tashlab ketgan edi. Bola uni hoziroq olib eshikdan qochib ketishi mumkin. Lekin ayol ortiga qarashni istamasdi. Bola buni sezdi va ayol uni ko'ra olishi mumkin bo'lgan joyga borib turdi. U ishonchsizlik qilishni istamadi.

— Do'kondan biror narsa olib kelishingiz kerak emasmi? — so'radi bola. — Sut yoki biror yegulik... olib kelib berardim.

— Menimcha, yo'q. Sut iching kelyaptimi? Menda quritilgan sut bor, undan kakaoli ichimlik tayyorlab beraman.

— Yaxshi bo'lar edi.

Ayol muzlatkichdan lima loviyalari va lahm go'sht oldi. Kakao tayyorladi va hammasini stolga qo'ydi. Ayol boladan qayerda yashashi, o'tmishi, umuman, o'zini qiziqtirgan narsalar haqida so'ramadi. Ovqatdan so'ng u o'z kasbi — mehmonxonaning go'zallik do'konida ishlashi va ishi doim kech tugashini, lekin o'z kasbini juda sevishini aytib berdi. Keyin bu yerga keluvchi har xil mijozlar — malla, qizil sochli ispan ayollari haqida gapirdi. U bolaga shirinlik uzatdi.

— Yana biroz yeb ol.

Dasturxonadan turibgach, ayol bolaning qo'lga o'n dollar tutqazdi.

— Bunga zamsh oyoq kiyim sotib olgin. Lekin keyingi safar xato qilma: meni yoki menga o'xshagan birortasining cho'ntagiga qo'lingni suqma. Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo'lga boshlamasin. Men biroz dam olay. Bu yerdan to'g'ri yo'lni topib keta olishingga ishonaman, o'g'lim.

Ayol uni tashqariga kuza-tib qo'ydi va eshikni yopdi. Bola unga nimadir degisi keldi, lekin aytolmadi. "Rahmat sizga, oyi", pichirladi u. Ayol uyga kirib ketguncha kuzatib qoldi. Shundan so'ng ular boshqa uchrashmadilar.

Ingliz tilidan

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimai.

Jarohat boshdami, yurakda?!

Dunyoda onamdan mehribon ayol bo'lmasa kerak?! Qaydam? Balki uning hali quyosh uyg'ommasdan tong saharlab ayvondagi to'rt sigirning qornini to'ydirish uchun dalaga ketganidanmi, birpas o'tib mitti aravachamizning "og'zidan ko'pirib chiqayotgandek" ustiga zichlab bosilgan yovvoyi o'larni kichik jussasi bilan sudrab kelayotganidanmi, shunga qaramay bizlarni ajib tushlar og'ushidan benasib qoldirmay to'rt bosh sigirga yemish tashlab, sutini sog'ib olganidanmi, ularning shirin sutidan bizlarga shirchoq tayyorlab, "Turaqol, bolam, ovqatingni yeb ol!" — deya tongda uyg'otuvchi mayin ohangda ovoz chiqar-ganidanmi, "Uning ko'ngil ummonidan mehr bulog'i qaynab chiqsa kerak?" — deb o'ylandim.

Bugun esa kun boshqacha! Erta tongdan birin-ketin hammamizni (singlimni, ukamni, meni ham) uyg'otib chiqdi. Keyin bilsam, kecha qo'shnimiz Surayyo opaga bergan va dasining ustidan chiqish uchun bizni ularning kattakon bedapoyasi tomon o't o'rimga

yordamlashish maqsadida yetaklagan ekan.

Qishloqda shunaqa! Yon qo'shni — jon qo'shni. Qo'shnimiz Surayyo opaga kun botguncha yordam berdik. Biroq hovliga qaytsak ham, singlim bilan ukamning bedapoyada boshlangan "bir-birining go'shtini yeyish" o'yini yo'lda ham, uyda ham tugamadi. Onamning necha bor aytgan "Qilma, qo'yma, bas qil", degan gaplarini nazarga ilishmadi. Oxiri volidamning qahri kelib ikkovini xonaga qamab, yuqqa tayoq olib kirib mahkamlarkan, bir zum o'tmay onamning faryod chekib baqirgan ovozi eshitdim. Yuragimda hadik bilan xonaga choparkanman, shu lahzaning o'zida xayolimni ming bir o'y egalladi. Ostonadan eshitilgan oyo-g'imning dupuridan cho'chigan singlim eshikni ocharkan, qarasam, onamning dalada kiyadigan ro'moli sochlarini to'zg'itib yerga tegib turardi, qo'llari boshining orqasini "dardimga malham" degan ma'noda ushlab turardi. Ko'zlaridan daryo-daryo yosh qalqir, yurakni ezuvchi ohangda g'ujanak bo'lib yotib yig'lardi. Ukamni esa titroq bos-

gan, tizzasini onamga yostiqlagan, qo'llarini onamning "malham" qo'llari ustidan qo'yg'an, yuzlarini o'z qilmishidan pushay-mon bo'lgan gunohkor inson timsolining ko'zyoshlari siypalagan, tillari faqat qayta-qayta bir so'zni qaytarardi: "Kechiring, onajon!"

Sal o'tib yig'idan ko'zlari qizargan singlimdan bor voqeani so'radim. Bilishimcha, bo'ylari "terak" ukam o'zining oldida hali endi unib borayotgan yosh novdadek ko'rindigan onamning nozik jussasiga kuch ishlatibdi. Zahri o'tmas tayoq zarbining "mazasini totish"dan ko'ra onamga bexosdan ozor yetkazishni afzal ko'ribdi. Ukamning onamga yetkazgan "xamir uchidan patir"dek keladigan "mehr"idan devor "qimirlabdi", undan "sado" chiqibdi.

Ertasi kuni hali quyosh o'zining zarrin nurlarini sochmasdan turib qulog'im ostida volidamning mayin ovozda shivirlab uyg'otishi yangrakkan, o'zimni issiq ko'rpa tagidan arang olaman. Menimcha, "sirkchi" ukalarimdan uyalgan bo'lsa kerak, ularni uyg'ot-

madi. Yo'l bo'yi yuzlarida ma'yuslik alo-matining aksi bilan Surayyo opaga dilidagi gaplarni to'kib borardi.

Va nihoyat, bedapoyaga kelarkanmiz, onam Surayyo opa bilan qoratutning rohat-baxsh soyasida o'tirib, ishga bel bog'lashdan oldin biroz tayyorgarlik ko'rib olishdi. Volidam o'zining "ishchi" ro'molini boshiga bog'larkan, eshitilmas past ohangda "Voooyo", — deya ensasini ushladi. Surayyo opa tovushidanmas, og'riqdan burishgan chehrasidan sezgan bo'lsa kerak, kuyunchak ohangda "Haa, nima bo'ldi?", deya onamning javobini kutmasdan boshing orqa qismini ushladi. Shunda u vahima bilan "Vooy-bo'o", g'urra bo'lib ketibdi-ku, nima qildi? — dedi. Onam esa ko'zlarini yerga qadam mayin ohangda "Sigir tepdi", deb qo'ya qoldi.


O'shanda volidamning yuragidan qanday kechinmalar o'tgani menga qorog'u... Biroq shu onda uning qalbini jannat maskanidan yaralgan marvaridga o'xshatganman.

Qiziq! Dunyodagi barcha ONA degan musharraf nomga muayassar bo'lganlar volidamdek bo'lsami?! Bilmadim...

Azim AXTAMOV

Yirik baliqlar yo'qolib bormoqda

Ekologlar so'nggi yigirma yillikda chuchuk suvda yashovchi og'irligi 30 kilogramgacha boradigan yirik baliqlar soni 94 foiz kamayganini ma'lum qildi. Olimlarning bu boradagi tadqiqot ishlari "Global Change Biology" jurnalida chop etildi.



Tadqiqot jarayonida daryo va ko'llarda yashovchi 120 turdan ortiq "megafauna"lar tahlildan o'tkazilib, natijalar Tabiatni asrash xalqaro uyushmasi hamda AQSh, Afrika, Osiyo va yevropa mamlakatlari umumiy boshqarmasi mutaxassislarining xulosalari bilan birlashtirildi. So'nggi xulosalar oxirgi 20 yillikda daryo va ko'llarda yirik baliqlar soni kamayib ketganini tasdiqladi.


Tarixda yer yuzida hayvonlarning ommaviy qirilib 5 marotaba qayd etilgan bo'lib, olimlar hozir bu jarayonning oltinchisi sodir bo'layotganidan xavotirda. Hatto Mekong, Dunay, Volga, Dnepr daryolarida yirik baliqlar butkul yo'qolib ketgan.

Xe va uning jamoasining ta'kidlashicha, hozircha olimlar qo'lida Afrika va Osiyoda yashovchi baliq turlari va ularning populyatsiyasi bilan bog'liq statistik ma'lumotlar yo'q. Shu bois yirik baliqlarning yo'qolib borishiga oid real vaziyat tadqiqotchilar o'ylaganidan-da yomonroq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Shunga qaramay, mutaxassislar tadqiqot davomida olingan barcha ma'lumotlar mega-baliqlar sonining keskin qisqarishi sababini aniqlashda muhim ekanini ta'kidlamog'da. Bu ma'lumotlar nafaqat baliqlarning mavjud turlarini saqlab qolish, balki suv jonivorlarining ekotizimga ta'sirini o'rganishda qo'l keladi.



Sun'iy idrok uchun ilk chip yaratildi



Intel kompaniyasi axborotlarni qayta ishlash markazlarida sun'iy idrok tizimini ishga tushiradigan ilk protsessorni taqdim etdi, deb yozdi "Reuters".

Nervana NNP-I (yoki Springhill) deb nomlangan yangi qurilma Isroilda 10 nanometrlilik Ice Lake protsessori asosida yaratildi. Korporatsiyaning ma'lum qilishicha, chip eng kam quvvatda ishlab, yuqori bosimni ham ko'tara oladi.

Intel ushbu protsessorni Isroilning Habana Labs va NeuroBlade startaplariga sarmoya kiritish hisobiga ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. Ma'lumotlarga ko'ra, Facebook allaqachon ushbu chipdan foydalanishni boshladi.

Yangi ixtiro kelgusida Intel Xeon serverli mikroprotessorlar imkoniyatini yanada oshirish hamda sun'iy idrok sohasidagi murakkab hisoblashga bo'lgan talabni qondirishga yordam berishi kutilmoqda.

Iroda TOSHMATOVA
tayyorladi.

Reklama • e'lon

Taniberdiyev Akmal Abdug'aniyevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari uchun klaster modulini ishlab chiqish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 14-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat, anjumanlar zali. Tel/faks: (70)717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Boboyorov Bobomurod Normatovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Jamiyat demokratlashuvida millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Mirzayev Abdullajon Topilovichning 08.00.05 — Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston hududlarida turistik-rekreasiya obyektlaridan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Tel/faks: (66) 233-19-84; e-mail: siec_info@edu.uz

Zikirova Nafosat Karshiboyevnaning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Markaziy Osiyo davlatlarida milliy taraqqiyot modellari" (ijtimoiy-falsafiy tahlil) mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rektor@nuu.uz

Hamroyev Ilyos Amirovichning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Temirchaklar bioekologiyasini o'rganish va ularning zararli turlariga qarshi zamonaviy kurash usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Q/3.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU, ma'muriy bino, 1-qavat, anjumanlar zali. Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

Sport – buguk murabbiy

Sport — inson irodasini toblovchi, hayot qiyinchiliklarini yengib, muvaffaqiyatlar sari dadil odimlashga undovchi murabbiy.

Quyida sportni hayotining mazmuniga aylanitira olgan taniqli sportchilarning fikrlarini taqdim etmoqdamiz.

✓ Men hayotim davomida qayta-qayta muvaffaqiyatsizlikka uchradim. Va shu orqali muvaffaqiyatga erishish yo'llarini o'rgandim.

Maykl Jordan

✓ Men natijalardan ko'ra ko'proq raqobatlashishdan zavqlanaman.

Apolo Ohno

✓ Sport inson xarakterini shakllantiradi: uni qoidalar bo'yicha yashashga o'rgatadi. G'alaba va mag'lubiyat nimaligini anglatadi. Bu esa haqiqiy hayot falsafasidir.

Rob Gronkovskiy

✓ Oltin medallar, aslida, oltindan yasalgan emas. U matonat, qat'iyatlilik va jasorat qotishmasidan iborat.

Den Gebi

✓ Inson uchun har bir kun yangi imkoniyat. Siz kechagi muvaffaqiyatlarga tayanib, yangi g'alabalari sari intilasiz. Professional beysbolchi hayotini ana shunday tashkil etadi.

Bob Feller

✓ Sportdagi jamoaviy faoliyatim meni o'zimni hech kimdan ustun qo'ymaslikka o'rgatdi.

Dulkur Salman

✓ Biznesda, sportda, san'atda va umuman hayotda muvaffaqiyat qozonish muhim emas: asosiysi, istak va uni amalga oshira olishdir. Ular o'rtasidagi ko'priki esa tartib-intizom.

Harvey Makkey

✓ Hayotda ham, o'yinda ham faqat bir qoidaga amal qilib yashadim: tezkor bo'l, ammo shoshilma!

Erl Monro

✓ Sport insonda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. U o'yinchiga xatolarni mustaqil hal qilish va maqsad sari dadil intilish sirlarini o'rgatadi.

Sport nafaqat yaxshi sportchini, balki yaxshi odamni ham tarbiyalaydi.

Juliya Fudi

✓ Sport xarakterni shakllantirmaydi, shunchaki uni yuzaga chiqaradi, xolos.

Heyvud Braun

✓ Sport insonga o'rgata oladigan eng muhim narsalardan biri taslim bo'lmay oxirigacha kurasha olishdir.

Luis Zamperini

✓ Sport odam uchun odatiy mashg'ulotga aylanmasligi kerak. Chunki u insondan har kuni yangicha shijoatni talab qiladi.

Kapil Dev

✓ Sport va hayot bir-biriga juda o'xshash: ikkisi ham o'zing va tabiatga qarshi o'ynaysan.

Robert Redford

✓ Sportda va biznesda muvaffaqiyatga erishgan insonlarga xos xususiyat hal qiluvchi vaziyatda eng to'g'ri qarorni qabul qila olishdir.

Don Yeger

Navbahorda "Tashabbuslar xiyoboni"

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosi doirasida Navoiy viloyati Navbahor tumanida "Tashabbuslar xiyoboni" barpo etildi.



Xiyobon futbol, basketbol, varkaut (ko'cha gimnastikasi) maydonchalari, kutubxona, kompyuter o'yin-gohi, elektron kutubxona hamda madaniyat markazini o'z ichiga olgan. Uni bunyod etish uchun qariyb 5 milliard so'mga yaqin mablag' sarflandi.

Shuningdek, xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida maskanda 100 ish o'rnini yaratilishi mo'ljallangan tikuv sexi qurilmoqda.

"Tashabbuslar xiyoboni"ning foydalanishga topshirilishi munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi Q. Tursunov ishtirok etdi.

Siroj ASLONOV (O'zA) olgan suratlar.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-829. Tiraj 11632.
Hajmi 4 bosma tabaq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6436



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqриз
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.

Navbatchi muharrir: Niginabonu Shukurova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'zA yakuni — 23.25 Topshirildi — 01.00

123 56